

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI
ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI

«MASHINASOZLIK TEXNOLOGIYASI» FAKULTETI

«SANOAT ISHLAB CHIQUARISHINI TASHKIL ETISH » KAFEDRASI

«**TASDIQLAYMAN**»
« MASHINASOZLIK TEXNOLOGIYASI »
fakulteti dekani
M-A.X.Eshonov

«___»_____2018 y.

«HIMOYAGA QO'YILDI»
«SANOAT ISHLAB
CHIQUARISHINI TASHKIL
ETISH» kafedra mudiri
i.f.d. U.A.Madrahimov

«___»_____2018.y

“Iqtisodiyot” yo’nalishi talabasi
TURSUNALIYEV SOHIBJON MAMASOBIR O’G’LINING
« SANOAT KORXONALARIDA DAVR XARAJATLARINI
KAMAYTIRISH IMKONIYATLARI »
(«O`Z ERAE CLIMATE CONTROL» MCHJ KORXONASI misolida)
MAVZUSIDAGI

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:

dots. M.B.Yusupova

Bajardi:

S.M.Tursunaliyev

Andijon-2018 yil

**« SANOAT KORXONALARIDA DAVR XARAJATLARINI
KAMAYTIRISH IMKONIYATLARI »
(«O`Z ERAE CLIMATE CONTROL» MCHJ KORXONASI misolida)
M U N D A R I J A**

Kirish.....

I-BOB. DAVR XARAJATLARINING NAZARIY TAVSIFI.

1.1.Mamlakatni modernizatsiyalash sharoitida davr xarajatlarini o`rganishning maqsadi va vazifalari.....

1.2. Sanoat korxonalarida davr xarajatlari tarkibi va hisobi.....

1.3. Sanoat korxonalarida davr xarajatlari hisobining amaliyoti va uning moliyaviy natijalarni shakllantirishga ta`siri.....

II-BOB. . «O`Z ERAE CLIMATE CONTROL» MCHJ QO'SHMA KORXONASIDA DAVR XARAJATLARI TARKIBI VA DINAMIKASI TAHLILI.

2.1. «O`Z ERAE CLIMATE CONTROL» MCHJ qo'shma korxonasi shakllanish tarixi va boshqaruv strukturasi.....

2.2. «O`Z ERAE CLIMATE CONTROL» MCHJ qo'shma korxonasida davr xarajatlari tahlili.....

2.3. «O`Z ERAE CLIMATE CONTROL» MCHJ qo'shma korxonasi davr xarajatlari o`zgarishining yakuniy iqtisodiy ko'rsatkichlari hamda samaradorligiga ta'siri tahlili.....

III-BOB. «O`Z ERAE CLIMATE CONTROL» MCHJ QO'SHMA KORXONASI DAVR XARAJATLARINI KAMAYTIRISH MUAMMOLARI VA IMKONIYATLARI.

3.1 «O`Z ERAE CLIMATE CONTROL» MCHJ qo'shma korxonasida davr xarajatlarini kamaytirish imkoniyatlari.....

3.2. Davr xarajatlarini kamaytirishning yo'llari va usullari.....

XULOSA

.....

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....

ILOVALAR.....

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Mamlakatimizda qabul qilingan iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo'llab quvvatlash bo'yicha belgilangan vazifalarni izchillik bilan amalga oshirilishi, jumladan, mahsulot eksport qiluvchi korxonalarning byudjet oldidagi va bank kreditlari bo'yicha qarzlarini to'lash muddatlarini uzaytirilishi, sanoat korxonalarida mahsulot tannarxini kamaytirish bo'yicha choralar, ichki talabni ko'paytirish orqali sanoat korxonalari mahsuloti bozorini kengaytirish, zarar ko'rib ishlayotgan sanoat korxonalarini banklar balansiga o'tkazish orqali ularni moliyaviy sog'lomlashtirish ishlari yirik investitsiya dasturlarini muvaffaqiyat bilan amalga oshirish sanoat ishlab chiqarishining 2017 yilda ham ijobiy dinamikasi ta'minlanishiga olib keldi. Bu borada Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev quyidagi fikrlarni bildirgan: "Barchamiz so'zsiz tushunamiz, iqtisodiy islohotlar va ijtimoiy o'zgarishlarni amalga oshirish eng avvalo iqtisodiy va moliyaviy organlarning faoliyati samaradorligiga bog'liqdir. Ular yaqin va uzoq istiqbolga mo'ljallangan, mamlakatimiz iqtisodiy qudratini mustahkamlashga doir strategik vazifalarni nafaqat ishlab chiqishi, balki amalga oshirishni ta'minlashi zarur"¹ deb aytdilar va ushbu vazifalarni bajarishda iqtisodiyot vazirligi boshqa vazirlik va idoralar uchun xarakatlantiruvchi kuch vazifasini bajara olmayotganini tanqid qildi.

Albatta, bunday natijalarga erishishda korxonalarda ishlab chiqarish jarayonini samarali tashkil etish, ulardagi mavjud resurslardan oqilona foydalanish, ularning moliyaviy barqarorligini oshirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Ushbu masalalarni ijobiy hal etishda, korxonaning samarali faoliyat yuritishini belgilovchi muhim shartlaridan biri «moliyaviy natijalar» kategoriyasining ijobiy xulosaga ega bo'lishida xarajatlar tarkibida unga bevosita ta'sir qiluvchi davr xarajatlari elementlari

¹ Sh.M.Mirziyoyev. "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak" // "Xalq so'zi" –21-yanvar 2017-yil

bo'yicha amalga oshiriladigan sarflarni to'g'ri tashkil qilish, hisobini aniq yuritish va kelgusida ma'muriy qarorlar uchun asos bo'luvchi ma'lumotlarni olishda tahlilni mukammal yuritish muhim ahamiyatga ega. Mazmuniga ko'ra davr xarajatlari ishlab chiqarish hajmiga bevosita aloqador bo'lmagan domiy xarajatlar guruhini tashkil qiladi. Moliyaviy davr yakunini ifodalovchi «moliyaviy natijalar» aniqlanguniga qadar buxgalteriya hisobida doimiy harajatlarning davr xarajatlari schyotida aks ettirilib borilishi, davr oxirida esa natija foyda yoki zarar bo'lishidan qat'iy nazar moliyaviy natija hisobidan qoplanishi uning o'ziga xos xususiyatini anglatadi.

Tadqiqot maqsadi. Xo'jalik yurituvchi sub'yektlar moliyaviy natijalarini shakllanish bosqichida asosiy faoliyatdan olingan foyda summasi aniqlanishida markaziy e'tiborda davr xarajatlarining turishi, uning xo'jalik moliyaviy faoliyatidagi ahamiyatlilik darajasi yuqoriligini ko'rsatadi. Bu esa tadqiqotlar, izlanishlar olib borish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Davr xarajatlari o'zining tarkibida xo'jalikning kelajakdagi faoliyatini yanada kengaytirish va rivojlantirish bilan bog'liq bo'lgan kelgusida soliq solinadigan bazadan chegiriladigan xarajatlarini mujassamlashtirishi, xo'jalik sub'ektlari moliyaviy natijasini aniqlashda o'ta muhimligi hamda bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy rivojlanish birlamchi ahamiyat kasb etishi mavzuning dolzarbliligini yanada oshiradi. Davr xarajatlari hisobi masalalari bo'yicha xorijiy va hamdo'stlik mamlakatlari olimlari Nidlz B., Anderson X., Kolduell D., Druri K, Ris Dj., Xorngren CH., Foster Dj., Entoni R., Kondrakov N.P., Sokolov Ya.V., SHeremet A.D. kabilar munosib hissa qo'shganlar. Respublikamiz olimlaridan Jo'raev N.Yu., Ibragimov A.K., Xasanov B.A., Pardaev A.H., Abdug'aniev A.A., Sotvoldiev A. S., Akramov E.A., Karimov A.A., Rahimov M.Yu., Xolbekov R.O., Ergashev SH.M va boshqalar ilmiy ishlarida ishlab chiqarish xarajatlari mavzusini keng yoritish bilan

birga tarkibida davr xarajatlarining ayrim elementlari qisman yoritilgan.

Yuqorida sanab o'tilgan olimlarning ilmiy asarlarida davr xarajatlari hisobi masalalari kompleks tarzda o'rganilmagan. Balki ma'lum bir qism yoki tarmoq hususiyatlariga bog'liq tarzda, asosiy maqsad va vazifalarni tashkil qilmagan holda qisman tadqiq etilgan. Undan tashqari mavzu bilan bog'liq masalalar yechimining turli hilda talqin qilinishi, munozaralarning mavjudligidan, ularni to'liq hal etilmaganligidan dalolat beradi. Xarajatlar tarkibidagi davr xarajatlari hisobi mavzusi ilmiy jihatdan bugungi kunga qadar kompleks tarzda o'rganilmaganligi, uning hususiyatlari to'liq ochib berilmaganligini ko'rsatadi. Yuqorida bildirilgan fikrlarning barchasi bitiruv malakaviy ishining mavzusining dolzarbligi va ahamiyatli ekanligini belgilab beradi. Mamlakatni modernizatsiyalash va iqtisodiyotni diversifikatsiyalash sharoitida korxonalarda davr xarajatlari hisobining nazariy, uslubiy va amaliy jihatlarini o'rganish asosida davr xarajatlari hisobini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iboratdir. Ushbu qo'yilgan maqsadga muvofiq ilmiy ishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- mamlakatni modernizatsiyalash jarayonida korxonalarda yuzaga keladigan xarajatlarni iqtisodiy mohiyatiga ko'ra ilmiy-nazariy asosda turkumashtirish;
- davr xarajatlarining iqtisodiy mohiyati va mazmunining nazariy asoslarini tadqiq etish;
- davr xarajatlarining baho siyosatini shakllantirishdagi o'rni va mohiyatini asoslash;
- moliyaviy natijalarni shakllantirish jarayonida davr xarajatlarining tutgan o'rni va ta'sir darajasini aniqlashdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishini tayyorlash jarayonida joriy davr iqtisodiy ilmida qo'llaniladigan huquqiy va uslubiy tamoyillarga amal

qilindi. Xususan, bitiruv malakaviy ishida O'zbekiston Respublikasi Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyevning Farmonlari, asarlari, nutq va maqolalari, Vazirlar Mahkamasining Qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Soliq Qo'mitasining me'yoriy hujjatlari va yo'riqnomalaridan keng foydalanildi. Mavzuni yoritishda iqtisodiy fanlarda, xususan iqtisodiy tahlilda qo'llaniladigan, hisoblash va tahlil qilish usullaridan foydalanildi. Shuningdek, moliyaviy-boshqaruv hisobi va iqtisodiy tahlil bo'yicha mamlakatimiz va xorijdagi yetakchi iqtisodchi olimlarning asarlari uslubiy va nazariy manba bo'lib xizmat qildi.

I-BOB. DAVR XARAJATLARINING NAZARIY TAVSIFI.

1.1.Mamlakatni modernizatsiyalash sharoitida davr xarajatlarini o'rganishning maqsadi va vazifalari.

Iqtisodiy hodisa va jarayonlar mazmunining kengayishi va tobora murakkablashib borishi iqtisodiy bilimlar tizimida ham unga nisbatan moslashuvchanlik, shakliiy va uslubiy o'zgaruvchanlik zaruriyatini talab etmoqda. Davr xarajatlarining tarkibi, mohiyatini yoritishda davr xarajatlari tarkibiga kiruvchi xarajatlar haqidagi ma'lumotlarning shakllanishini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa o'z navbatida axborot manbayi sifatida hizmat qiluvchi buxgalteriya hisobiga murojaat etishni taqozo etadi.

Shu nuqtai nazardan, bugungi buxgalteriya hisobi tizimi ilgarigi maqsadidan tubdan farqlanib, bevosita xo'jalik hodisalari to'g'risidagi ma'lumotlarni shunchaki rasmiylashtirish va statistika funktsiyalaridan, ya'ni tartibli jamlash va umumlashtirishdan iborat bo'libgina qolmay, balki xo'jalik boshqaruvida ta'sir va yutuq darajasiga ega bo'lgan qarorlar uchun lozim bo'lgan foydali axborotlar talabini qondirishdan iborat bo'lmog'i lozim. Uning bosh maqsadi ham shunga mos ravishda aniq yechimlar sharti bo'lgan ma'lumotlar bazasini to'g'ri va aniq tarzda talab obyektiga yetkazishga qaratilgan. Belgilangan maqsadga erishishda, hisob jarayonida amal qilinishi lozim bo'lgan tamoyillar mavjud bo'lib, ular asosiy Qonun hujjatida ham alohida ahamiyat kasb etgan. Bular: buxgalteriya hisobini ikki yoqlama yozuv usulida yuritish; uzluksizlik; xo'jalik operatsiyalari, aktivlar va passivlarning pulda baholanishi; aniqlik; hisoblash; oldindan ko'ra bilish (ehtiyotkorlik); mazmunning shakldan ustunligi; ko'rsatkichlarning qiyoslanuvchanligi; moliyaviy hisobotning beterafligi; hisobot davri daromadlari va xarajatlarining muvofiqligi; aktivlar va majburiyatlarning haqiqiy baholanishidan iborat.

Sanab o'tilgan tamoyillarning amal qilishi buxgalteriya hisobining bosh maqsadiga erishish vositasi bo'lib hisoblanadi. Jumladan, xuquqiy asoslarda hisob tizimining maqsadi quyidagicha aks ettirilgan. Ya'ni: «Buxgalteriya hisobining maqsadi aktivlar va majburiyatlarning holati va harakati to'g'risidagi

ma'lumotlarni hisobvaraqlarda to'g'ri va aniq aks ettirishdan iboratdir». Shu bilan birga normativ asosda hisob tizimining oldiga qo'yilgan vazifalari ham alohida punktlar bilan yoritilgan. Unda foydalanuvchilarga o'z vaqtida to'g'ri va aniq ma'lumotlarni yetkazib berish bosh shart sifatida yoritilgan.

Bugungi kunda buxgalteriya hisobining asosiy vazifasi ham aynan shundan iborat, faqat ilgari mavjud mulk va uning butligini, harakat shaklini doimiy kuzatish, uslubiy ifodalash va tartibli aks ettirishdan iborat bo'lgan bo'lsa, joriy davrda mazmunida shu yo'nalishlarning samaradorlik ifodalari salmoqli ulushga ega bo'lib bormoqda. Buning sababi, iqtisodiyotimiz jadal rivojlanib borayotgan bir davrda buxgalteriya hisobini samarali boshqarish yutug'iga olib borishda oddiy kuzatish asosida tartiblash va jamlash orqali erisha olmaydi. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda buxgalteriya hisobining bosh vazifasiga quyidagicha ta'rif berishimiz, fikirimizcha joriy davrda uning barcha qirralarini to'liqroq ifodalashga olib keladi.

Buxgalteriya hisobining bosh vazifasi -xo'jalik aloqalari, iqtisodiy hodisa va jarayonlar to'g'risidaga ma'lumotlarni aniq, o'z vaqtida va ma'lum uslub asosida umumlashtirish orqali, boshqaruvni zaruriy iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan ta'minlashdan iboratdir. Buxgalteriya hisobi xo'jalik mexanizmining asosiy elementi sifatida korxonani boshqarish uchun talab qilinadigan ma'lumotlarning 70 foizini yoki eng kamida 25 foizini berishini e'tiborga oladigan bo'lsak, uning tarkibiy qismi sanalgan davr xarajatlari hisobi va tahlilining maqsad va vazifalarini bozor iqtisodiyoti talablari asosida tashkil qilinishi bugungi kunning o'ta dolzarb masalalaridan biri ekanligini alohida ta'kidlash mumkin.

Iqtisodiy samaradorlikka erishishning bosh shartlaridan biri bo'lgan, moliyaviy natijalarga bevosita ta'sir doirasida joylashgan davr xarajatlarini intensiv tashkil qilish boshqaruvning bosh maqsadi ekan, buxgalteriya hisobining vazifasi ham avvalo mazkur bog'lanishlar ifodasida aks etadi. Buxgalteriya hisobining vazifasi ushbu xarajat elementlari va moddalari bo'yicha sarflarni ko'rsatkichlarda to'g'ri aniqlash, real ifodalashdan, tahlil vazifasi esa ularni davrlar davomida tarkibli va omilli o'zgarishlarini o'rganish asosida samaradorligini

oshirish bo'yicha ichki imkoniyatlarni aniqlash va ularni xo'jalik faoliyatiga joriy qilishdan erishiladigan natijalarni baholashdan iborat.

O'z navbatida tahlilning vazifasi ana shu joriy qilingan hisob tizimining uslubi va tartibini to'g'riligini, qonun hujjatlariga mosligini ta'minlashdan, bu boradagi ish rejalarini belgilash va yo'lga qo'yishdan iborat. Buxgalteriya hisobida davr xarajatlari hisobi vazifalarining uzviy ketma-ketlik tarzida bajarilishini ta'minlashda, mavjud tamoyillarga aniq rioya qilish muhim ahamiyatga ega. Chunki, davr xarajatlari bo'yicha hisob tamoyillariga doimiy amal qilib borish natijasida bajarilayotgan belgilangan hisob vazifalari mazkur xarajat elementlari va moddalari hususidagi buxgalteriya hisobi ma'lumotlarining mukammaligini ta'minlaydi.

Bunday natijaviylik o'z navbatida davr xarajatlarning samara keltiruvchi yangi imkoniyatlarini kashf etishda iqtisodiy tahlil vazifalarining to'liq bajarilishi natijasi sanalgan yangi yo'nalishdagi qirralarini kengroq ochib beradi. Demak, davr xarajatlari hisobi va tahliliga ijobiy smaradorlik keltiruvchi birlamchi bosqich-hisob tamoyillari sirasida quyidagilarni alohida e'tirof etish o'rinlidir:

- davr xarajatlarning xar bir moddasi bo'yicha amalga oshirilgan sarf xarajatlarni buxgalteriya hisobida ikki yoqlama yozuv usulida yuritish orqali bir schyotning debetida va aynan shu miqdorni ikkinchi schyotning kredit tomonida aks ettirish;

- xo'jalik yurituvchi sub'ektda yuzaga kelgan davr xarajatlarini buxgalteriyada hisobga olishda uzluksizlik tizimini ta'minlash;

- davr xarajatiga tegishli har qanday sarflarni, qanday ko'rinishda xarajat qilinishidan qat'iy nazar, buxgalteriya hisobida umumiy o'lcham hisoblangan pulda baholash;

- buxgalteriya hisobida har bir yozuvning asosi bo'lgani kabi, aniqlikni ta'minlash vositasi sanalgan-davr xarajatlarini yuzaga kelgan o'rni va javobgarlik markazlari bo'yicha boshlang'ich hujjatlarda o'z vaqtida aks ettirish;

- asosiy qonunga asosan davr xarajatlarining sarflangan vaqti sanasidan qat'iy nazar, qaysi davrga taalluqli bo'lsa, hisoblash tamoyiliga ko'ra o'sha hisobot davrida aks ettiriladi;

- xo'jalikda amalga oshirilgan har bir davr xarajatlarini tahliliy nuqtai nazardan kelgusida qanday samaradorlik keltirishini oldindan ko'ra bilish va natijaviyligini ehtiyotkorlik asosida baholash;

- davr xarajatlari elementlari va moddalari bo'yicha sarflangan mablag'lar to'g'risidagi ma'lumotlarni boshqaruvga tegishli qarorlar qabul qilish uchun optimal tarzda yetkazishda, umumiy mazmunni saqlagan holda shaklni soddalashtirish yo'li bilan hujjatlar aylanishi tezkorligini ta'minlash;

- sarflangan mablag'larni davr xarajatlari moddalari bo'yicha shunday tashkil qilish kerakki, tahliliy jihatdan xar bir sarflangan mablag' o'tgan davrlarga va raqobatdagi xo'jaliklarga nisbatan samaradorligi ijobiy farqni bersin, ya'ni davr xarajatlarining moddalari ko'rsatkichlarini qiyoslanuvchanlik shaklida tashkil qilish. Hisob tamoyillari bilan birgalikda va doimiy bog'liqlikda mavjudlikni saqlovchi davr xarajatlarini buxgalteriyada hisobga olishning funktsiyalariga ham amal qilib, ular mazkur xarajatlarning hisob tizimidagi funktsional davomiyligini aks ettiradi. Jumladan, tegishli hisob funktsiyalari sirasida bir nechtasini sanab o'tish mumkin.

Birinchidan, kelgusidagi xo'jalik faoliyati uzluksizligini ta'minlash uchun xo'jalik ehtiyojiga asosan davr xarajatlarini tarkibli asosda rejali tashkil qilish-bu reja funktsiyasi;

Ikkinchidan, amalga oshirilayotgan davr xarajatlarining haqiqatda bajarilishi va biznes rejada mo'ljallanganini kuzatish, ya'ni ko'zda tutilgan xarajatlarning amalda qanchalik muvofiqligini tekshirish. Ushbu bosqichda buxgalter rejadagi bilan taqqoslaganda haqiqiy davr xarajatlarining qiyoslama tahlilini o'z ichiga olgan axborot talab etiladi-bu nazorat funktsiyasi;

Uchinchidan, qo'yilgan maqsadlarni amalga oshirish uchun korxona boshqaruvi talabiga asosan sarflangan davr xarajatlari to'g'risida axborot tizimi

zarur. Davr xarajatlarining buxgalteriya hisobi ushbu funktsiyasi-axborot funktsiyasidir;


To'rtinchidan, korxonaning moliyaviy iqtisodiy holatini, uni yaxshilash maqsadida qaror qabul qilish uchun, bevosita ta'sir tizimida bo'lgan davr xarajatlari umumiy miqdori to'g'risida ilgari qabul qilingan strategiya va taktikasini baholash va tahlil qilishi jarayoni. Mazkur jarayon-davr xarajatlari hisobining tahliliy funktsiyasini ifodalaydi;

Beshinchidan, davr xarajatlarining hisob funktsiyasi korxona xo'jalik faoliyatida mazkur element xarajatlarini hujjatlar asosida yalpi, uzluksiz, o'zaro bog'langan ifodasidir. Xususan, keltirilgan funktsiyalarning davomiyligi davr xarajatlarining buxgalteriya hisobida kelgusidagi vazifalarini belgilash imkoniyatini beradi. (1.1.1-jadval)

Davr xarajatlarini to'g'ri tashkil qilish va samaradorligini qaror toptirishda elementlar bo'yicha, eng muhimi aniqlikni ta'minlash vositasi sanalgan xarajatlarning har bir moddalari bo'yicha sarflar harakati, uning bir birligi evaziga kelayotgan samaraning har qaysi keyingi o'zgarishi oldingi o'zgarishning yutuq farqiga ega bo'lishi muhim ahamiyatga ega. Mana shu natijaviylik uning real samaradorligini ifodalaydi. Davr xarajatlari hisobida, hisob aniqlovidagi har qanday birlik element o'zining aniq va real ifodasiga ega bo'lmog'i, ya'nikim, umumiy (davr) xarajatlarga chiqishda, har bir element sarflarining qatori o'zining yuzaga chiqish o'rni va davri bo'yicha sarflarni hisobga olishning oldingi bog'lanishlariga to'la mos bo'lmog'i lozim. Aynan mana shu jihatga muhim e'tibor berish shart.

Moliyaviy natija (foyda) miqdorini kamaytiruvchi mazkur sarflarni nazorat qilishning muhim vositasi sifatida «xarajat-natija-samaradorlik» bog'lanuvchanlikka tayaniladi. Shu nuqtai nazardan, davr xarajatlari hisobini samarali tashkil qilishda yuqoridagi fikrlardan yo'nalish olgan holda, «xarajat-natija-samaradorlik» aloqalarini to'g'ri shakllantirish, davr xarajatlari elementlarining yuzaga chiqishlarni yoki markazlari bo'yicha tarkibli hisobini yuritish, bevosita ta'sir ob'ekti bo'lgan moliyaviy natijani aniqlashda muhimlikka

o'tishning aniq bog'lanishlar shartini belgilash masalalarini hal etish lozim. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda davr xarajatlarini tadqiq qilishning bosh maqsadini quyidagicha keltirishimiz, bizningcha tizimining hususiyatlarini kengroq ifodalaydi.



1.1.1-chizma. Davr xarajatlarini o'rganishning funktsiyalari.

Davr xarajatlari o'rganishning maqsadi har bir sarflangan xarajat moddalariga tegishli mablag'lar butligi ustidan nazoratni ta'minlash tizimi vositasida samaradorligini baholash uchun boshqaruvni xarajatlarni kamaytirish yuzasidan zarur axborotlar bilan ta'minlashdan iborat. Ushbu maqsadga erishishni ta'minlash uchun davr xarajatlarini o'rganish vazifalariga quyidagilarni keltirish mumkin:

- sotish xarajatlarning tarkibini o'rganish va ulardan samarali foydalanishni nazorat qilish;
- boshqaruv xarajatlarning to'g'ri va aniq rejalashtirilganligi hamda hisobga olinishini ta'minlash, ushbu xarajatlarni boshqarish bo'yicha tegishli ma'lumotlarni korxona rahbariyati uchun yetkazib berish;

- boshqa operatsion xarajatlar va daromadlar haqidagi ma'lumotlar dinamikasini o'rganishni to'g'ri tashkil qilish, ular ustidan samarali nazoratni o'rnatish;

- iqtisodiy tahlil etish shartida mazkur xarajatlar rejasining bajarilishiga, tarkibiy o'zgarishi va dinamikasiga baho berish;

- davr xarajatlarini tarkibiy o'rganish asosida uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash;

- davr xarajatlarining moliyaviy natijalarga kam ta'sirda va yuqori natijali elementlarini chegaraviy miqdorini oshirish va samarasizlarini yo'qotish yuzasidan choralarni belgilash.

Demak, davr xarajatlarini boshqarish natijaviy samaradorligini ta'minlashda belgilangan maqsad yo'lidagi tegishli vazifalarning o'z vaqtida bajarilib borilishi va amal qilinishi lozim bo'lgan tamoyillarga doimiy rioya qilinishi muvaffaqiyat garovi sanaladi.

1.2. Sanoat korxonalarida davr xarajatlari tarkibi.

Davr xarajatlari tarkibiga korxona ishlab chiqarish jarayoni bilan bevosita bog'liq bo'lmagan xarajatlar kiradi. Bular jumlasiga boshqaruv, tijorat bilan bog'liq xarajatlar, shuningdek umumxo'jalik xarajatlari, jumladan ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari bo'yicha xarajatlar ham kiradi. Bu xarajatlar korxona asosiy faoliyati va mahsulot sotish bilan bog'liq bo'lmaganligi, lekin ma'lum bir jarayonlarni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lganligi uchun ular operatsion xarajatlar, umumiy va ma'muriy xarajatlar deyiladi. Ular mahsulot ishlab chiqarish va sotish hajmiga bog'liq bo'lmagani, va aksincha, vaqt bilan, xo'jalik faoliyatining davomiyligi bilan bog'liq bo'lgani sababli davr xarajatlari deb yuritiladi.

Mahsulot sotish, ma'muriy xarajatlar, xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklar xarajatlari, boshqa operatsion xarajatlar davr xarajatlari tarkibiga kiritiladi. Belgilangan tartibga binoan davr xarajatlari quyidagi hisobvaraqlarda aks ettiriladi:

«Sotish xarajatlari»

«Ma'muriy xarajatlar»

«Boshqa operatsion xarajatlar»

«Kelgusida soliqqa tortiladigan bazadan chegiriladigan hisobot davri xarajatlari».

Xususan, «Sotilgan mahsulot tannarxiga kiritiladigan xarajatlar tarkibi va moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi» to'g'risidagi Nizomga binoan sotish xarajatlari tarkibiga quyidagilar kiritiladi:

- temir yo'l, suv, avtomobil, ot-ulovda tashish xarajatlari hamda transport vositalari bekor turib qolganligi uchun to'langan jarimalar;
- savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarining xarajatlari;
- mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni sotish bilan bog'liq mehnatga haq to'lash xarajatlari (ma'muriy-boshqaruv xodimlaridan tashqari);
- ularning ijtimoiy sug'urta ajratmalari;
- savdo ehtiyojlari uchun foydalaniladigan binolar, inshootlar va xonalarni ijaraga olish, saqlash va tuzatish xarajatlari;
- asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi;
- sanitariya kiyim-boshi, oshxona dasturxon va sochiqlari, oshxona idish-tovog'i va anjomlarining eskirishi;
- gaz, yoqilg'i, elektr energiyasi xarajatlari;
- tovarlarni saqlash, ularga ishlov berish va ularni sortlarga ajratish xarajatlari;
- savdo reklamasi xarajatlari;
- tashish, saqlash va sotish chog'ida tovarlarning norma doirasida va undan ortiqcha yo'qotilishi;
- o'rash-joylash materiallari xarajatlari;
- mol-mulkni majburiy sug'urta qilish xarajatlari;
- mehnatni muhofaza qilish va texnika xavfsizligi xarajatlari;
- ventilyatorlar, mashinalar va ularning harakatlanuvchi qismlarini o'rnatish va saqlash, tuynuklar, o'yiqlar va boshqalarning atrofini o'rash bo'yicha joriy (nomukammal tusdagi) xarajatlar;

- maxsus kiyim-bosh va poyafzalni yuvish va tuzatishga materiallar qiymati;
- bank xizmatlariga to'lovlar.

Bu moddalardagi summalar foydaning kamayishiga olib keladi, ya'ni foyda hisobidan qoplanadi.

«Ma'muriy xarajatlar» tarkibida asosan quyidagilar:

- korxonani boshqarish bo'yicha xarajatlar;
- boshqaruv xodimlarining mehnat haqi xarajatlari;
- umumboshqaruv ahamiyatiga molik asosiy vositalarni ta'mirlash xarajatlari;
- umumxo'jalik ahamiyatidagi binolarning ijara to'lovlari va boshqa xarajatlar inobatga olinadi.

Quyidagilar «Boshqa operatsion xarajatlar» tarkibiga kiritiladi:

- Soliq qonuni va boshqa qonunlarni buzganlik uchun jarima va penyalar;
- To'langan boshqa jarimalar;
- Boshqa xarajatlar;

«Kelgusida soliqqa tortiladigan bazadan chegiriladigan hisobot davri xarajatlari» tarkibida hisobot davrida soliqqa tortiladigan bazadan chegirilmaydigan, ammo ushbu tadbirlarni amalga oshirish uchun qilingan xarajatlarni rejalashtirilgan samaraga erishilgan holda, kelgusi hisobot davrlarida soliqqa tortiladigan bazadan kamaytiriladigan xarajatlar inobatga olinadi. Hisobot davri oxirida yig'ilgan xarajatlar «Yakuniy moliyaviy natija» hisobiga o'tkaziladi.

«Xarajatlar tarkibi to'g'risidagi Nizom»ga muvofiq davr sarflari ishlab chiqarish jarayoni bilan bevosita bog'liq bo'lmagan xarajatlar va sarflar bo'lib, unga xo'jalik yurituvchi subyektni boshqaruv xarajatlari, mahsulot sotish xarajatlari va umum xo'jalik ahamiyatiga ega bo'lgan boshqa xarajatlar kiradi.

Ushbu xarajatlar to'g'ridan-to'g'ri korxonaning mahsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqarishga oid faoliyati bilan bog'liq bo'lmasada, lekin ularning realizatsiyasiga oid asosiy faoliyat bilan bog'liq bo'lganligi uchun ham operatsion xarajatlar deb ataladi. Ular, asosan, ishlab chiqarilgan mahsulot hajmiga bog'liq bo'lmasdan, daromadlarning olinishi chog'ida qilingan xarajatlar bo'lib, olingan daromadlar aks ettirilgan hisobot davriga kiritilishi kerak.

Zarur hollarda xo'jalik yurituvchi subyekt «Reklamaga oid xarajatlar», «Saqlash va tashish bo'yicha xarajatlar», «Ma'muriy boshqaruv xodimlarining ish haqi xarajatlari», «Umumma'muriy maqsadlardagi asosiy vositalarning eskirishi» «Asosiy vositalarning chiqib ketishidan ko'rilgan zarar», «TMZlar bahosining arzonlashtirilishidan ko'rilgan zararlar», «ITTKIga oid xarajatlar, «Hisoblab yozilgan jarimalar, penyalar, ustamalar yoki mazkur korxonaga xos bo'lgan operatsiyalarni aks ettirish uchun ma'lumotlar bazasini yaratish mumkin. Alohida bazada mahsulotni sotishga oid xarajatlar, ya'ni mahsulotlarni iste'molchiga yetkazib berish, transport vositalarga yuklash bilan bog'liq xarajatlar, marketing bilan, mahsulotlarni sotish va shu kabilar bilan band bo'lgan bo'limlar va xodimlarning xarajatlari aks ettiriladi.

«Boshqa operatsion xarajatlar» tarkibida ilmiy-tadqiqot tajriba-konstruktorlik» ishlanmalariga oid xarajatlar, korxona aktivlarining sotilishi va boshqacha, chiqib ketishlaridan ko'rilgan zararlar, TMZlar bahosining arzonlashtirilishidan ko'rilgan zararlar, tabiiy kamayishlardan ko'rilgan zararlar, xodimlarga beriladigan moddiy yordamlar, sud chiqimlari va xo'jalik faoliyati jarayonida yuzaga keladigan (ishlab chiqarish jarayoni, moliyaviy faoliyat bilan bog'liq bo'lmagan va favqulodda xarajatlar moddalari sifatlariga ega bo'lmagan) boshqa xarajatlar ko'rsatiladi.

Xarajatlar tarkibi to'g'risidagi Nizomga ilovada keltirilgan, kelajakda soliq solinadigan bazadan chiqariladigan hisobot davri xarajatlari (ya'ni vaqtinchalik farqlar) aks ettiriladi. Ma'lumki, « ... xarajatlar tarkibi to'g'risidagi Nizom»ning 1 va 2 - ilovalari buxgalteriya hisobi maqsadlari va soliq solish maqsadi uchun xarajatlarni hisoblab yozish chog'ida yuzaga keluvchi farqlarni aks ettiradi. Mazkur Nizomning 1-ilovasida korxona daromadlaridan hisobot davrining sof foydasini hisob-kitob qilish chog'ida chiqarib tashlanadigan, biroq xo'jalik yurituvchi subyektning soliq solinadigan bazasiga soliqqa oid qonun hujjatlariga muvofiq daromad (foyda) solig'ining hisob-kitobi chog'ida kiritiladigan xarajatlar moddalari keltiriladi. Bular keyingi davrlarda bekor qilinmaydigan doimiy farqlardir. Ularga xodimlarga to'lanadigan moddiy yordamlar, qo'shimcha ta'til, mukofotlarining

to'lanishi, uyali va peyjing aloqalar, yengil xizmat avtotransportiga xizmat ko'rsatish va ko'pgina boshqa xarajatlar kiritiladi. 2-ilovada sof foydani hisob-kitob qilish chog'ida korxonaning daromadlaridan chegirib tashlanadigan, biroq ularning yuzaga kelishi vaqtida soliq solinadigan bazaga kiritiladigan xarajatlarning ro'yxati beriladi.

Doimiy farqlardan farqli ravishda ushbu xarajatlar keyingi davrlarda soliq solinadigan baza tarkibidan chiqarib tashlanishi kerak (vaqt bo'yicha tafovutlar yoki vaqtincha farqlar). Vaqtinchalik farqlar hisobga olinishi lozim bo'lgan xarajatlar «Yakuniy moliyaviy natija» hisobiga olib boriladi.

Ushbu xarajatlar, yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, soliq solish maqsadlari uchun joriy davrning soliq solinadigan bazasiga qaytadan kiritilishi kerak, keyinchalik esa undan mazkur xarajatlarning butun foydali amal qilish muddati davomida yoki ushbu muddatlardan qaysi biri qisqa bo'lishidan kelib chiqqan holda 10 yil davomida chegirilib boriladi. Xarajatlarning buxgalteriya hisobi maqsadlari va soliqqa tortish maqsadlari uchun aks ettirilishidagi farqlar buxgalteriya hisobining asosiy maqsadi xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining sof foydasini, demak, bozordagi raqobatbardoshligini ham aniqlash uchun ularning xarajatlari hisoblash va moliyaviy natijalarini aniqlash ekanligidan kelib chiqadi. Soliq organlari, odatda, buxgalterlik foydasi bilan qiziqmaydilar, ularni xo'jalik yurituvchi subyektning ayrim xarajatlar moddalarini soliqqa oid qonun hujjatlariga muvofiq buxgalterlik foydasiga qo'shish yo'li bilan aniqlanadigan soliqqa tortiladigan daromad ko'proq qiziqtiradi.

Vaqtinchalik farqlar - hisobot davrining soliqqa tortiladigan va hisob daromadlari o'rtasidagi farqlar bo'lib, ular ayrim moddalari soliqqa tortiladigan daromadga kiritiladigan hisobot davri ular hisob daromadiga kiritiladigan hisobot davri bilan muvofiq kelmasligi sababli yuzaga keladi. Doimiy farqlardan farqli ravishda, vaqtinchalik farqlar keyingi hisobot davrlarida bekor qilinadi. 2-ilovaga muvofiq, vaqtinchalik farqlarga, misol uchun, yangi xo'jalik yurituvchi subyektlarning, ishlab chiqarish, sex, agregatlari o'zlashtirishga oid xarajatlari,

mahsulotlarning yangi turlarini tayyorlash va ishlab chiqarishni o'zlashtirishga oid xarajatlar va boshqa xarajatlar kiritiladi.

Xarajatlarning ushbu ro'yxatidan ko'rish mumkinki, bular aynan kelajakda daromad keltiruvchi xarajatlardir (axir aynan mana shuning uchun ham yangi ishlab chiqarishlarni o'zlashtirishga oid sarflar va shunga o'xshash xarajatlar qilinadi), demak, hisob tamoyillariga muvofiq ular korxona balansida aktiv sifatida aks ettirilishi va keyingi davrlarda biror-bir muntazam asosda hisobdan chiqarib borilishi kerak.

Vaqtinchalik farqlar yuzaga keladigan vaziyatlar g'oyatda xilma-xil bo'lishi mumkin. Buxgalteriya hisobining xalqaro amaliyotida vaqt bo'yicha farqlarning yuzaga kelishiga oid eng ko'p tarqalgan misollardan biri bo'lib, korxona tomonidan Soliq kodeksi tasdiqlanganidan farq qiluvchi amortizatsiya hisoblash usullarining qo'llanishi hisoblanadi. Har qanday holatda ham amortizatsiyalanadigan mulkning barcha qiymati asosiy vositalarning me'yorlangan xizmat muddati mobaynida xarajatlarga hisobdan chiqariladi, biroq ushbu muddat ichida turli usullarda hisoblab yozilgan amortizatsiya summasidagi farqlar ko'zga tashlanadi.

Vaqtinchalik farqlar bo'yicha soliq qonunchiligi va buxgalteriya qonun hujjatlari bir-biriga muvofiq kelmaydi. Shuning uchun buxgalteriya hisobida vaqt bo'yicha farqlarni aks ettirish masalasiga juda ehtiyotkorlik bilan yondashish lozim, aks holda bu hol soliq qonunchiligining buzulishiga olib keladi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 15 oktyabrdagi 444-sonli qaroriga muvofiq «Xarajatlar tarkibi to'g'risidagi Nizom»ning 2-ilovasi jadallashtirilgan metod bo'yicha hisoblangan amortizatsiya summasi va belgilangan me'yorlar bo'yicha hisoblangan amortizatsiya summasi o'rtasidagi quyidagi vaqtinchalik farqlar kiritilgan: a) asosiy vositalar bo'yicha soliqqa oid qonun hujjatlariga muvofiq; b) nomoddiy aktivlar bo'yicha boshlang'ich qiymat va foydali foydalanish muddatidan kelib chiqqan holda xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan hisoblab chiqarilgan me'yorlarga muvofiq.

Davr xarajatlari - butun ishlab chiqarish, va, umuman korxonani boshqarish, faoliyatni tashkil etish va unga xizmat qilish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar.

Agar xarajatlar yangi turdagi mahsulotni tajribaslov maqsadlarida ishlab chiqarish uchun, yoki kelgusidagi operatsion faoliyat uchun amalga oshirilgan bo'lsa, ular kelgusi davr xarajatlari deb tan olinadi. Shu davrda emas, balki kelgusi davrlarda manfaat keltirishi mumkin. Kelgusida erishiladigan natijalari bo'yicha korxonaning davr xarajatlari sifatida tan olinishi mumkin.

Davr xarajatlarini tashkil qiluvchi va bir necha tegishli xarajat moddalaridan iborat xarajat guruxlarining har biri, hattoki, tegishli operatsiyalarni aks ettiruvchi xarajat moddalarining dastlabki hujjatlashtirilish jarayoni hususiyatlariga ko'ra birbirlaridan farqlanishadi. Ushbu hujjatlashtirish tizimi jarayonini davr xarajatlarining tarkibiy guruxlaridan biri sanalgan «Ma'muriy xarajatlar». Jumladan, ma'muriy xarajatlarning nazoratini kuchaytirish va hisobini yuritishdagi aniqlikni ta'minlash maqsadida «Ma'muriy xarajatlar» hisobiga quyidagicha kiritishni tavsiya qilamiz: «Mehnatga haq to'lash bo'yicha xarajatlar»; «Mehnatga haq to'lash fondidan ajratmalar»; «Umumma'muriy asosiy vositalarning amortizatsiyasi bo'yicha xarajatlar»; «Umumma'muriy asosiy vositalarning ijarasi bo'yicha xarajatlar»; «Umumma'muriy asosiy vositalarni sug'urtalash xarajatlari»; «Umumma'muriy nomoddiy aktivlarning amortizatsiyasi bo'yicha xarajatlar»; «Yuqori tashkilotlarni saqlash xarajatlari»; «Boshqa ma'muriy xarajatlar». Foizlar ko'rsatkichlaridan ma'lumki, tilga olingan xarajat moddalari umumiy miqdorning deyarli yarmidan iborat.

Korxonalardagi davr xarajatlari xo'jalik bo'yicha umumiy tarzda yig'iladi va moliyaviy natija hisobidan qoplanadi. Bizningcha, davr xarajatlarining nazoratini kuchaytirish va maqsadlilikini ta'minlash uchun yuzaga kelish joylari va xarajat markazlari bo'yicha ma'lumotlar tizimini shakllantirish zarur.

Ushbu tartib moliyaviy natijaning yuqori yoki pastligiga qanday omillar salbiy yoki ijobiy ta'sir etganligiga, qaysi moddada kamroq xarajat qilib yaxshiroq natijaga erishganiga, zaruriy chora va tadbirlarni qo'llashga, rahbariyatni real va tezkor ma'lumotlar bilan ta'minlashga va xo'jalik to'g'risida ma'lumotlardan tashqi foydalanuvchilar tomonidan to'g'ri baho berish imkonini beradi.

1.3. Korxonalarda davr xarajatlari va ularning moliyaviy natijalarni shakllantirishdagi o'rni.

Ishlab chiqarilayotgan va sotishga mo'ljallangan mahsulotlar bahosini belgilash xo'jalik ixtiyorida bo'lmaganligi, bozordagi talab va taklif asosida shakllanganligi sababli yuqori foydalilikka erishish omili bo'lgan daromadni oshirish faqatgina amalga oshirilayotgan xarajatlarni nazorat qilish va boshqarish bilan belgilanadi. Jumladan, xo'jalik moliyaviy natijalarining yuqori ijobiyligini ta'minlashda, ayniqsa xarajatlar tarkibida bevosita ta'sir xususiyatiga ega bo'lgan «davr xarajatlari» elementining to'g'ri va aniq shakllantirilishini yo'lga qo'yish, hisobot davri yakunida muvaffaqiyat garovini ta'minlashdagi boshlang'ich qadam sanaladi.

Davr xarajatlari shakllantirilishida rivojlangan mamlakatlarda, 4 ta printsiplarni doirasida ish yuritilishi aniqlangan.² Jumladan, mazkur printsiplarni xo'jaliklarda davr xarajatlari uchun ham bevosita qo'llash maqsadga muvofiqdir. Bular: Samaradorlik. Ushbu printsiplardan iboratki, hisob ma'lumotlarini qayta ishlash tizimidan olinadigan foyda miqdorini, unga erishish uchun sarflangan xarajatlarga teng yoki undan ko'proq bo'lishini ko'zda tutadi. Olingan foyda va sarflangan xarajatlarning teng bo'lgan nuqtasi, I.F.SHerning «o'lik nuqta» printsipli deb ataladi va bu nuqta xo'jalikning minimal faoliyatini tutib turishini ifodalaydi.³ Ushbu printsiplarning davr xarajatlari xususida qo'llanilishi esa, xar bir birlik sarflangan davr xarajatlarning qo'shimcha ravishda qancha foyda keltirganligini yoki sarf va daromadning teng ko'rsatkichga ega ekanligini aks ettiradi.

Nazorat printsipli- bu ma'lumotlar tizimining korxona mablag'larini himoya qilish mexanizmidan iborat bo'lib, u korxonani boshqarish borasida to'g'ri xulosa chiqarish uchun asos bo'luvchi ma'lumotlar bazasi to'liqligini bildiradi. Davr xarajatlari, ushbu printsiplarni, moliyaviy natijalarga doimiy salbiy ta'sirda bo'lgan xarajat moddalari to'g'risida uzluksiz aniq va to'g'ri hamda o'z vaqtida axborotlar olish tizimi faoliyati darajasini belgilovchi omildir.

² Kaspina R.G, Plotnikova L.A Buxgalteriskiy uchyot: uchebniy posob, Rossiya-M: eksmo 2010

³ Yusupova Nilufar «davr xarajatlari hisobini tashkil etish» Toshkent 2012.

Aloqadorlik printsipti tizimida xo'jalik uchun tashkiliy (mehnat predmeti, mehnat vositalari) va inson (mehnat kuchi) omillarini hisobga olishni talab etadi. Ushbu omillarning o'zaro muvofiqligi uzluksiz va barqaror ishlab chiqarish faoliyatini ta'minlashda ahamiyatlidir.

Davr xarajatlari ma'lumotlar tizimida aloqadorlik printsiptining ahamiyati shundan iboratki, moliyaviy natijalarga manfiy ta'sirda bo'lishi nuqtai nazaridan mehnat haqi xarajatlari, boshqaruv samaradorligi darajasi bo'yicha xodimlar sonini optimal tashkil qilishdan iborat.

Egiluvchanlik printsipti - tizimiga maxsus tashkiliy o'zgartirishlar kiritmasdan turib, ishlab chiqarishni kengaytirish imkoniyatini yaratishni talab qiladi. Bunda ishlab chiqarish asosan mehnat unumdorligini oshirish va ishlab chiqarish samaradorligini o'stirish hisobiga bajariladi. Davr xarajatlari ma'lumotlar tizimiga egiluvchanlik printsipti asosida yondashish ushbu xarajatlarni optimal qisqartirish va moliyaviy natijalarga ta'sirini kamaytirish hususiyatini anglatadi.

Davr xarajatlari ma'lumotlar tizimini keltirilgan printsiptlar asosida tashkil qilish va yuritish nafaqat tizimning jadallashishini, balki uni xalqaro talab normalari doirasida muvofiqlashtiradi.

Xarajatlarning xalqaro amaliyotdagi «direktkosting» bo'yicha tannarx kalkulyatsiyasi kontseptsiyasi ishlab chiqarish hajmi va mahsulot samaradorligi, daromadni baholash va rejalashtirishda bezararlik nuqtasini hisoblashda foydalidir.

“Direct-costing” qoidalariga asoslangan «qisqartirilgan tannarx» tizimini ifodalaydi. Fikrimizcha, xo'jalikning mahsulot ishlab chiqarish tannarxiga kiritilmaydigan, shuningdek doimiy faoliyat jarayonini ta'minlovchi xarajatlarning davr xarajatlari sifatida aks ettirilishi va faqat moliyaviy natijalar hisobidan qoplanishidan asosiy maqsad -ishlab chiqarilayotgan mahsulot (ish, xizmat) tannarxining sun'iy o'sishini cheklashga qaratilgandir. Chunki, birinchidan, davr xarajatlarini tashkil qiluvchi moddalar bevosita ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq emas; ikkinchidan, mazkur xarajat elementi moddalarining aksariyat qismi chegaralanmagan xarajatlar guruhlarini tashkil qiladi (belgilangan iqtisodiy

ko'rsatkichlarga nisbatan). Agar xarajat moddalari mahsulot tannarxiga hisobdan chiqarilganda, ortiqcha maqsadsiz sarflarning yuzaga kelishiga imkon tug'ilishi mumkin edi va mahsulot tannarxi nazoratsiz oshishiga sharoit yaratilar edi. Uchinchidan, mablag'larni oqilona sarflash nuqtai nazaridan, davr xarajatlarining bevosita moliyaviy natija hisobidan qoplanganligi bois, xo'jaliklar ularni maksimal tejashga intilishadi. Bizningcha, ushbu hisob tizimining milliy iqtisodiyotimizga joriy etilganligi maqsadga muvofiqdir. Faqat korxonalar davr xarajatlarini tashkil qiluvchi moddalar tarkibini mamlakatimizning bugungi iqtisodiy rivojlanishiga mutanosib ravishda doimiy qayta ko'rib chiqib borish zarur.

II-BOB. . «O`Z ERAE CLIMATE CONTROL» MCHJ QO'SHMA KORXONASIDA DAVR XARAJATLARI TARKIBI VA DINAMIKASI TAHLILI.

2.1. «O`Z ERAE CLIMATE CONTROL» MCHJ qo'shma korxonasi shakllanish tarixi va boshqaruv strukturasi.

Andijon shahrida joylashgan Ma'suliyati Cheklangan Jamiyat shaklidagi «O'z ERAE Climate Control» MCHJ qo'shma korxonasi, Janubiy Koreyaning «ERAЕ CS Ltd» korxonasi, «O'zavtosanoat» aksiyadorlik kompaniyasi va masuliyati cheklangan jamiyat «Avtosanoat invest» o'rtalarida imzolangan kelishuvlardan so'ng 2010-yil sentabr oyida tashkil etilgan va 2012-yil may oyidan rasman o'z faoliyatini boshladi. Korxona tashkil etilishida ta'sischi asosan Uzavrosanoat -57%, Erae cs limited -40% va Avtosanoat Invest -3% ko'rinishidagi aksiyalar orqali tashkil etilgan. Korxonaning umumiy maydoni 23342 m² ni tashkil etadi.

Qo'shma korxona «GM Uzbekiston» AJ tomonidan ishlab chiqarilayotgan Lacetti, Cobalt, Spark, Matiz va AVEO rusumli zamonaviy avtomobillarni radiatorlari, shamollatish, havoni tozalash kabi va isitish uskunalari bilan ta'minlab berish uchun tashkil etilgan. Ushbu tashabbus orqali avtomobil detallari import xajmini qisqartirish va bu bilan davlat valyuta zahirasini tejab qolish, shuningdek yangi ishchi o'rinlarini yaratishga mo'ljallangan. Qo'shma korxonada asosan avtomobilning sovutish va isitish tizimi ishlab chiqiladi.

2013-yildan boshlab qo'shma korxonada ISO/TS 16949:2009 hamda ISO 9001:2008 xalqaro standartiga muvofiq sifat tizimi yo'lga qo'yilgan. Ushbu tizimni boshqarishni yo'lga qo'yilgandan so'ng, korxonada ko'ptarmoqli sifat tekshirish tizimi, hom-ashyo sifatini, uni kirib kelishidan tortib to korxona tomonidan ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotgacha bo'lgan davrni nazoratini kuchaytirish imkoniyatini berdi.

Qo'shma korxonada hozirgi davrga kelib 200 dan ortiq malakali ishchi hodimlar faoliyat yuritib kelmoqda va hozirda yiliga 500 ming dona avtomobil isitish va sovutish qismlarni ishlab chiqarish quvvatiga ega.

«O'z ERAE Climate Contol» MCHJ QK da ishlab chiqarilgan mahsulotlar O'zbekiston Respublikasining asosiy avtomobil ishlab chiqaruvchisi «GM-

UZBEKISTAN» AJ avtomobil zavodiga, shuningdek Respublika hududidagi xizmat ko'rsatuvchi servislarga yetkazib berish bilan birga Rossiya va Qozog'iston kabi hamdo'stlik davlatlariga eksport qilinmoqda.

Ushbu korxonada kelgusida chiqarilayotgan eng zamonaviy turdagi avtomobillarga sovutish va isitish moslamalarini sifatli darajada yetkazib berishni oldinga maqsad qilib qo'ygan. Hozirgi kunda korxona ishchilari chet el Koreya hamkorligida sovutish va isitish moslamalarini elektron tarzda ishlashini yo'lga qo'yish maqsadida. Ushbu sovutish va isitish moslamalarini yanada isloh qilish natijasida, ularni inson organizmiga zarar yetkazmagan holda ishlashini ta'minladi. Misol uchun sovutish va isitish moslamalaridan chiqarilayotgan issiq va sovuq havolar insonning organizmiga hech qanday zarar yetkazmasligi uchun uni turli laborotoriya xonalarida sinovdan o'tkazilgan. Korxonada ishchilar mutahassisligi turlicha bo'lib, u yerda laborotoriya honalari ham tashkil etildi. Hisob-kitoblarni yanada to'liq va ishonchliligini ta'minlash maqsadida hisobchilarni o'z faoliyatiga qarab turli yo'nalishlarda ishlashini ta'minladi. Masalan: kassa bo'limiga alohida bir shaxs, soliq hisobotlarini o'z vaqtida ishonchli va sifatli jo'natish maqsadida alohida ishchi, material xarajatlariga alohida shaxs, ishlab chiqarish xarajatlariga alohida shaxs va albatta ishlab chiqarilgan mahsulotni sotishni esa ya'na bir shaxs. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, korxonada ichki nazoratni (monitoringni) ham to'g'ri yo'lga qo'ygan bo'lib, u yerda malakali tahlilorlar ham ish olib bormoqda. Korxona ishlab chiqarish bo'limidagi yangiliklarga, korxona ishlab chiqargan mahsulotlarni sifatli yetkazib berish maqsadida zamonaviy turdagi yuk yetkazib berish avtomobillarini yangilab kelmoqda. Ushbu avtomobillarda sovutish va isitish moslamalarini sifatli va jarohatsiz yetkazib berish maqsadida korxona ichida sovutish va isitish moslamalarini qoliplari ishlab chiqilgan bo'lib, ular mahsulotni sifatli va jarohatsiz yetkazib berish 99%gacha ta'minlay oladi. Agarda yuk avtomobiliga biron korxol bo'lgan taqdirda sovutish va isitish moslamalariga hech qanday zarar yetmaydi. Korxonada ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarga keladigan bo'lsak, o'rganilayotgan davr mobaynida «O'z ERAE Climate Control» MCHJ qo'shma korxonasida Damas avtomobili uchun radiatorlarni seriyali ishlab

chiqarishni boshlanishi, Nexia R3 avtomobili uchun HVAC&CRFM modullarini seriyali ishlab chiqarishni boshlanishi, Cobalt va Spark avtomobillari uchun trubkalarni seriyali ishlab chiqarishni boshlanishi, SamAvto avtobuslari uchun isitish pechini seriyali ishlab chiqarishini yo'lga qo'yganligi ma'lum.

Mas'uliyati cheklangan jamiyat «O'z ERAE Climate Control» MCHJ qo'shma korxonasi bo'limlari quyidagichadir:

- Kadrlar bo'limi;
- Umumiy bo'lim;
- Ishlab chiqarish bo'limi;
- Ta'minot bo'limi;
- Buxgalteriya bo'limi;
- Rejalashtirish bo'limi;
- Xarid bo'limi;
- Devonxona;
- Sifat nazorati bo'limi;
- Mehnatni muhofaza qilish bo'limi;

Ushbu bo'limlarga to'xtaladigan bo'lsak "Kadrlar bo'limi" bu bo'lim bevosita korxonadagi hodimlar bilan bog'liq bo'lgan masalalar, muammolar va takliflar bilan shug'ullanadi. Korxonadagi mavjud bo'sh ish o'rinlarni to'ldirish, malakali kadrlarni jalb qilish hamda shu holatlar bilan bog'liq bo'lgan ishlarni hujjatlashtirish bilan mashg'ul bo'ladi. Bu bo'limda 3 nafar hodim ishlaydi. Ularning barchasi o'z vazifalariga ega. Shuningdek hodimalarni ishga kelib ketishi ya'ni davomati, kech qolishi, korxonadan tashqariga chiqish, xizmat safarlari, hodimlarni kasal bo'lib qolishi yoki boshqa sabablar tufayli ishga kelmasliklari, hodimlarga chiqqan buyruqlarni amalga oshirishni va ishchilarni ovqat tabeli shularning barchasi "Kadrlar bo'limi" nazorati ostida bo'ladi.

Umumiy bo'limda korxonaga kerak bo'lgan zaruriy jihozlarni, ishlab chiqarishga aloqasi bo'lmagan holda olib kelish bilan shug'ullanadi. Masalan, xonalar uchun konditsionerlar, hujjatlarni tartibli saqlash uchun kitob joylari,

hujjatlar bilan ishlash uchun qog'ozlar yoki bo'lim printerini kartridji buzilib qolsa, uni ta'mirlash kabi ishlar bilan shug'ullanadi. Bo'lim 5 nafar hodimdan iborat.

Ishlab chiqarish bo'limi korxonaning asosiy bo'limlaridan biri hisoblanadi. Ishlab chiqarish bo'limida ishlab chiqarish liniyalari mavjud bo'lib, barcha liniyalarning o'z masterlari bor. Ular ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni, ishchilar faoliyatini nazorat qiladi. Shuningdek o'z liniyasiga kerak bo'lgan xom-ashyo va materiallar haqida bo'lim boshlig'iga ma'lumot beradilar. Bo'lim boshlig'i esa bevosita ta'minot bo'limi bilan bog'lanib, bu masalalarni hal qiladi. Shuningdek bo'lim hodimlari buxgalteriyaga ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan barcha hisobotlarni topshiradilar. Korxona yillik rejani oladi va uni oylarga taqsimlab ishlab chiqarish jarayonini amalga oshiradi.

Korxonaning eng muhim va asosiy bo'limlaridan biri ishlab chiqarishni mahalliyashtirish va lokalizatsiya bo'limi hisoblanadi. Bu bo'lim korxona o'z faoliyatini boshlagandan beri bir qator vazifalarni amalga oshirib keladi. Bo'limning asosiy maqsadi mamlakat hududiga kirib kelayotgan barcha import detallarini mahalliyashtirish orqali ya'ni o'zimizda ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishdan iborat. Lokalizatsiyalash korxona tashkil topgandan buyon asta sekinlik bilan amalga oshirilib kelinmoqda. Bu orqali mamlakatda xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, bosh ish o'rinlarini tashkil etish va bu orqali aholini ish bilan band qilish, ya'ni ishsizlikni oldini olish va eng muhimi milliy valyutani o'zimizda saqlab qolishga erishiladi.

Ta'minot bo'limi korxonaning ishlab chiqarish jarayoniga bevosita kerak va zarur bo'lgan barcha xorijiy va mahalliy xom-ashyolar bilan ta'minlaydi. Korxonaga kelgan barcha materiallar dastlab ta'minot omboriga kelib tushadi.

Buxgalteriya bu bo'lim korxonaning yuragi hisoblanadi. Korxonada mavjud barcha iqtisodiy operatsiyalar bu bo'lim bilan bog'liq. Bo'limda 7 nafar hodim faoliyat olib boradi. Ular bosh buxgalter, material bo'yicha buxgalter, ish haqi bo'yicha va ishlab chiqarish bo'yicha buxgalter, soliq bo'yicha buxgalter va xorijiy valyutalarda operatsiyalar bo'yicha buxgalter, kassa bo'yicha buxgalter, mol yetkazib beruvchilar bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha buxgalter va yuk

chiqarish bilan bo`g`liq operatsiyalar bo`yicha buxgalterlar hisoblanadi. Ularning barchasi o`z vazifalariga ega.

Rejalashtirish bo`limida korxonaning yil davomidagi ishlab chiqarish hajmini, materiallar sarfi hamda yil davomida kutilayotgan xarajatlar va foydani rejalashtiradi. Korxonaning biznes rejasini tuzadi va tayyor mahsulot kalkulyatsiyasini ishlab chiqadi.

Devonxonada barcha hujjatlar registratsiya qilinadi.

Sifat nazorati bo`limi korxonada ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifatini, yaroqlilik darajasini tekshiradi. Shuningdek kelayotgan materiallarni ham sifatini nazorat qiladi, sifat tekshiruvidan o`tkazadi. Yaroqsiz mahsulotlar chiqishini oldini oladi.

”Mehnat muhofazasi” bo`limiga keladigan bo`lsak - bu bo`lim korxonada mavjud muhitni mehnat xavfsizligini ta`minlashni nazorat qilishni, korxonada faoliyat yuritayotgan barcha hodim va ishchilarni xavfsizligini ta`minlash, shuningdek ishga qabul qilingan har bir hodim va ishchiga ”Mehnat xavfsizligi” yo`riqnomasi bilan tanishtiriladi. Bo`lim 3 nafar hodimdan iborat


Yuqori bo`g`in rahbarlari bosh direktor, texnik direktor va ularning o`rinbosarlari kiradi.

O`rta bo`g`in rahbarlariga korxonadagi bo`lim rahbarlari kiradi.

Quyi bo`g`in rahbarlariga guruhlar, brigada rahbarlari va ustalardan iborat.

Qo'shma korxonaning boshqaruv strukturasi quyidagi 2.1.1-jadvalda batafsil yoritilgan.

«O'Z ERAE Climate Control» MCHJ qo'shma korxonasining boshqaruv strukturasi.



(2.1.1-chizma)

Korxonaning boshqaruv strukturasi.

2.2. «O`Z ERAE CLIMATE CONTROL» MCHJ qo'shma korxonasida davr xarajatlari tahlili.

Mahsulot tannarxi korxonalar faoliyatining asosiy sifat ko'rsatkichlaridan biridir. Bozor munosabatlari shakllanishi bilan, tahlildagi asosiy e'tibor xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning moliyaviy holatiga qaratilmoqda va bunda mahsulot tannarxining tahliliga ham katta e'tibor qaratilmoqda. Yuqoridagi fikrlardan shu ma'lum bo'ladiki, bugungi kunda ishlab chiqarish xarajatlari tahlili mahsulot tannarxi tahlili tarkibida yuritilayotgan bo'lsa, davr xarajatlarining tahlil qilinishi xo'jalik moliyaviy natijalarining tahlili bilan uzviy bog'liqlikda olib borilmoqda va shu tarkibda yuritilmoqda. «O`Z ERAE CLIMATE CONTROL» MCHJ qo'shma korxonasida 2017 yilda jami xarajatlar 2016 yilga nisbatan 28709866 ming so'm bo'lgan bo'lsa bu o'tgan yilga nisbatan 2,8 barobarga ko'paygan. Ammo 2017-yilda jami xarajatlar 2015-yilga nisbatan 16703248 ming so'mga ortgan. Bu esa 2016-yilga nisbatan kamroq. Davr xarajatlari ham o'tgan yilga nisbatan oshgan (2.2.1-jadval).

Korxona ishlab chiqarish tannarxiga kiritilgan xarajatlar esa 2015-yilda 19725067 ming so'm bo'lsa 2016-yilda ushbu xarajatlar 10106828 ming so'mni, 2017-yilga kelib esa 28397614 ming so'mni tashkil qilgan. Ushbu xarajatlar 2017-yilda 2015-yilga qaraganda 8672547 ming so'mga oshgan va 2016-yilga nisbatan esa 18290786 ming so'mga ko'paygan xisoblanadi. Davr xarajatlari 2017-yilda 5492688 ming so'mni tashkil qilgan bo'lsa 2016-yilda 3469759 ming so'mni 2015-yilda esa 3801357 ming so'mni tashkil qilgan. Korxona davr xarajatlari 2017-yili 2015-yilga qaraganda 1691331 ming so'mga, 2016-yilga qaraganda esa 1922929 ming so'mga ortganligi jadvaldan ma'lum. Korxona o'z faoliyatini moliyaviy xarajatlarga bog'liqligini hisobga oladigan bo'lsak, ushbu korxona 2015-yilda moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlari 4490739 ming so'm, 2016-yilga kelib 2433958 ming so'm va 2017-yilga kelib esa 10830109 ming so'm xarajat qilgan xisoblanadi. Ushbu ko'rsatkichlar shuni ko'rsatadiki korxona 2017-yilda 2015-yilga nisbatan 6339370 ming so'm xarajat qilgan va 2016-yilga nisbatan esa 8396151 ming so'm xarajatlarni amalga oshirgan.

2.2.1-jadval

«O`Z ERAE CLIMATE CONTROL» MCHJ qo'shma korxonasida sarf-xarajatlar tahlili


(ming so'm)

№	Ko'rsatkichlar	2015 yil	Jami ganisbatan (%)	2016 yil	Jami ga nisbatan (%)	2017-yil	Jami ga nisbatan (%)	Farqi 2017-yilni 2015-yilga (+,-)	Farqi 2017-yilni 2016-yilga (+,-)
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
1	Ishlab chiqarish tannarxiga kiritilgan xarajatlar	19 725 067	70.5	10 106 828	63.1	28 397 614	63.5	+8672547	+18290786
2	Davr xarajatlari	3 801 357	13.5	3 469 759	21.7	5 492 688	12.3	+1691331	+1922929
3	Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar	4 490 739	16	2 433 958	15.2	10 830 109	24.2	+6339370	8396151
4	Jami	28017163	100	16010545	100	44720411	100	+16703248	+28709866

****Manba: «O'z ERAE Climate Control» MCHJ qo'shma korxonasining yillik statistika ma'lumotlari.***

Tahlil ma'lumotlariga aniqlik kiritish maqsadida ularning dinamikasi mutanosibligini ko'rib chiqamiz (2.2.1-diagramma).

Diagramma ma'lumotlariga qaraganda korxonaning ishlab chiqarish tannarxiga kiritilgan xarajatlar 2017-yilda qolgan yillarga nisbatan juda ko'p bo'lib, buning asosiy sabablaridan biri korxona mahsuloti qolgan yillarga nisbatan ko'p sotilganligidir.




2.2.1-diagramma.

“O‘z ERAE Climate Control” MCHJ qo‘shma korxonasi xarajatlar dinamikasi.

(ming so‘m)

Diagrammadan ko‘rinib turibdiki ishlab chiqarish tannarxi xarajatlari ko‘paygan sari davr xarajatlari va moliyaviy xarajatlar ham oshib borgan. O‘z navbatida moliyaviy xarajatlar ham shunday tarzda o‘zgara borgan. Ammo 2016-yilda ishlab chiqarish tannarxiga kiritilgan xarajatlar kamaygan sari davr xarajatlari va moliyaviy xarajatlar ham kamayib borgan. 2016-yildagi moliyaviy xarajatlarning 2017-yildagi moliyaviy xarajatlarga kamligini sababi 2017-yilda o‘tgan yilda olingan bank kredit foizni va qolgan yillardagi bank foizlarini jamlagan holda moliyaviy xarajatlarga kiritib yubordi.



2.2.2-diagramma.

“O‘z ERAE Climate Control” MCHJ qo‘shma korxonasi barcha xarajatlar yillar davomida foizlarda o‘zgarishi.

O‘rganilayotgan davr mobaynida jami xarajatlarning yillar davomida o‘zgarishi keltirib o‘tilgan. O‘rganilayotgan davrni biz 100% deb olamiz. Jami xarajatlar 2015-yilda o‘rganilayotgan davrning 32% ni tashkil qilgan bo‘lsa 2016-yilga kelib esa 18% ni, 2017-yilda esa eng ko‘p qismini tashkil qilgan bo‘lib 50%ni qamrab olgan. Diagrammadan ko‘rinib turibdiki xarajatlarning eng kam qismi 2016-yilga to‘g‘ri kelgan bo‘lib ushbu yilda mahsulot sotishdan tushgan tushum qolgan yillarga nisbatn ancha kamligi, bunga sabab korxona ichki tuzilishida o‘zgartirishlar bo‘lib, ya‘ni: korxonada ishlab chiqarilayotgan avtotransport mashinalarining sovutish va isitish moslamalarining sotib oluvchi asosiy GM-Uzbekistan qo‘shma korxonasida ishlab chiqarilayotgan “orlando” avtomashinasini sotuvini to‘xtashi sabab bo‘lgan. 2017-yilda esa jami xarajatlar qolgan yillarga nisbatan eng yuqori qismini tashkil qilganligini asosiy sabablaridan bittasi 2017 yilda Nexia R2 avtomobilining to‘xtatilishi hamda Nexia R3 avtomobilining ishlab chiqarilishini yo‘lga qo‘yilganligi hamda ushbu avtomobilning haridorgir ekanligidadir.

Xarajatlarning keskin oshib ketishi, yangi hodimlarni kelganligi va ularga ish tajribasini o'rgatilganligi sabab bo'lgan. Umuman olganda, jami xarajatlar ham, davr xarajatlari ham oshgan. Mazkur holatni salbiy baholash lozim. Davr xarajatlari, asosan mutloq summada o'rganiladi. Shuningdek, nisbiy darajasi va o'zgarishlariga ham katta ahamiyat beriladi. Davr xarajatlarining tovar aylanishiga yoki realizatsiya xajmiga bo'lgan nisbiydarajasi tahlilda muhim ro'l o'ynaydi. Shuning uchun tahlilning bu boradagi asosiy vazifasi-davr xarajatlarining faqat o'zgarishini emas, balki bu o'zgarishlarga ta'sir qiluvchi omillarga ham baho berishga qaratilishi lozim.

«O'Z ERAE Climate Controle» MCHJ qo'shma korxonasi mahsulotlariga juda katta talab mavjudligi tufayli korxona sarf-xarajatlari ham shunga qarab ko'payib boraveradi.

2.2.2-jadval

«O`Z ERAE CLIMATE CONTROL» MCHJ qo'shma korxonasida davr xarajatlari tarkibi va dinamikasi tahlili

(ming so'm)

№	Ko'rsatkichlar	2015y	Jamiga nisbatan (%)	2016y	Jamiga nisbatan (%)	2017y	Jamiga nisbatan	Farqi 2017y ni 2015y ga	Farqi 2017y ni 2016y ga
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
2	Sotish xarajatlari	389 133	10.2	301 167	8.7	895 616	16.3	+506483	+594449
3	Ma'muriy xarajatlar	1 361 376	35.8	1 373 124	39.6	1 345 781	24.5	-15595	-27343
4	Boshqa operatsion xarajatlar	2 050 847	54	1 795 469	51.7	3 251 291	59.2	+1200444	+1455822
5	Jami	3 801 357	100,0	3 469 759	100,0	5 492 688	100	1691331	2022929


***Manba: «O'z ERAE Climate Control» MCHJ qo'shma korxonasining yillik statistika ma'lumotlari.**

Korxonada davr xarajatlari mahsulot ishlab chiqarish tannarxidan keyingi o'rinda turib ushbu xarajatlar ko'rxonaning mahsulotlariga ham juda katta foyda keltirgan xolda ma'lum bir miqdorda ortib ketishi tufayli korxona o'z sof foydasiga zarar yetkazishi mumkin. Ushbu davr xarajatlarini o'z ichiga sotish bilan bog'liq xarajatlar, ma'muriyat bilan hamda boshqa bir qancha xarajatlar bilan bog'liq bo'limlarda iborat.

Ko'rsatkichlar bo'yicha ko'rib chiqadigan bo'lsak sotish xarajatlari 2015-yilda 389133 ming so'mni, 2016-yilda 301167 ming so'mni, 2017-yilga kelib esa 895616 ming so'mni tashkil qilmoqda. Bu esa 2017-yil 2015-yilga nisbatan 506483 ming so'm, 2016-yilga nisbatan esa 594449 ming so'mni tashkil qilmoqda. Ma'muriyat bilan bog'liq xarajatlar esa 2015-yilda 1361376 ming so'm, 2016-yilda 1373124 ming so'm, 2017-yilga kelib ushbu ko'rsatkichlar 1345781 ming so'mga yetgan. Bu esa 2017-yilda 2015-yilga nisbatan 15595 ming so'mga 2016-yilga nisbatan esa 27343 ming so'mga kamaygan. Bunga sabab umumxo'jalik ahamiyatidagi binolarning ijara to'lovlari va boshqa xarajatlari yo'qligi tufayli ma'muriy xarajatlar kamaygan. Boshqa operatsion xarajatlar 2015-yilda 2050847 ming so'm, 2016-yilda 1795469 ming so'm hamda ushbu ko'rsatkich 2017-yilga kelib 3251291 ming so'mni tashkil qilgan. 2017-yil boshqa operatsion xarajatlar 2015-yilga nisbatan 1200444 ming so'mga oshgan va 2016-yilga nisbatan esa 1455822 ming so'mga ortgan. Bunga sabab soliq qonuni va boshqa qonunlarni buzganlik uchun jarima va penyalar tushganligidir. Izlanishlar natijasida xulosa qilib aytish mumkinki, davr xarajatlarining haqiqiy hajmi va bazis yillarga nisbatan o'zgarishi, avvalo, tovar aylanishi hajmining o'zgarishi bilan qisman bog'liq bo'ladi. Chunki, davr xarajatlari elementi tarkibida ayrim shunday xarajat moddalari mavjudki, ular ishlab chiqarish hajmi va sotish darajasi bilan uzviy bog'liqlik munosabatlarini ifodalaydi. Bular:

- maqsadli jamg'armalarga majburiy ajratmalar;
- sotuvchi xodimlarning ish haqi;
- ijtimoiy sug'urta ajratmalari;
- turli xil sotish xarajatlari;

- realizatsiya hajmiga mutanosiblikda ma'muriy va boshqa xodimlar ish haqlarining o'zgarishi va hokazo xarajatlarni keltirish mumkin.



2.2.3-diagramma. Korxona davr xarajatlari o'sib borishi.

Keltirilgan diagrammadan ko'rinib turibdiki davr xarajatlari tarkibidagi o'zgarishlar tempi bir xil emas. Xususan, sotish xarajatlari 2016-yilda keskin kamayib 2017-yilda 2016-yilga qaraganda 3 baravar oshgan. Ma'muriy xarajatlari ko'rib chiqilayotgan davrda sezilarli o'zgarmagan. Biroq operatsion xarajatlari 2017-yilda 2016-yilga nisbatan keskin oshgan, ya'ni 1.8 barobarga ortgan. Shu bilan birga bu xarajatlarning davr xarajatlari tarkibidagi salmog'i 2017-yilda

Masalan, 2017-yilning sotish xarajatlari tarkibi quyidagi 2.2.3-jadvalda ko'rsatib o'tilgan.

2.2.3-jadval.**2017-yilda Sotish xarajatlari tarkibi**

(so'm)

№	sotish xarajatlari tarkibi	summasi
1	uzoq yillar davomida ishlaganlik uchun mukofot	6 270 850,38
2	davlat boji	860 365,36
3	yagona ishtimoiy to'lov	64 905 330,47
4	material xarajatlari	10 427 663,13
5	fuqarolik javobgarligini majburiy va ixtiyoriy sug'urta qilish	161 258,13
6	majburiy va ixtiyoriy mulk sug'urtasi	7 782 540,84
7	mehnat haqi	227 872 564,60
8	boshqa xarajatlar	5 249 827,34
9	2012-yildan xodimlar ovqatlanishi uchun xarajatlar	25 205 289,01
10	reklama xarajatlari (normallangan)	218 837,80
11	mahsulotlarni eksport qilish xarajatlari	1 468 290,71
12	sotish xarajatlari	477 371 036,44
13	asosiy vositalarni ta'mirlash xarajatlari	6 485 386,70
14	transport xarajatlari	61 336 577,59
15	Jami	895 615 818,49

****Manba: «O'z ERAE Climate Control» MCHJ qo'shma korxonasining yillik statistika ma'lumotlari.***

Jadvaldagi ma'lumotlarga qaraganda 2017-yilda sotish xarajatlarning eng katta qismini realizatsiya qilish xarajatlari undan keyin esa mehnat haqi xarajatlari tashkil qilmoqda.

Quyidagi 2.2.4-jadvalda esa ma'muriy xarajatlar tarkibi keltirib o'tilgan.

2.2.4-jadval.

Ma'muriy xarajatlar tarkibi 2017-yil

(so'm)

№	ma'muriy xarajatlar tarkibi	summasi
1	ma'muriy xarajatlar	6 270 850,38
2	davlat mulkini ijaraga olish xarajatlari	49 477858.71
3	uzoq yillar davomida ishlaganlik uchun mukofotlar	22 782 277.12
4	rahbarlik uchun ustama to'lov	24 990 681.84
5	yagona ijtimoiy to'lov	169 475 026.89
6	xizmat safari xarajatlari	71 954 931.97
7	me'yoridan ortiq xizmat safari xarajatlari	12 521 782.02
8	fuqarolik javobgarligini majburiy va ixtiyoriy sug'urta qilish	171 663.72
9	mehnat haqi xarajatlari	576 729 333.10
10	boshqa xarajatlar	41 668.63
11	2012-yildan xodimlar ovqatlanishi uchun xarajatlar	53 687 870.85
12	asosiy vositalarni ta'mirlash xarajatlari	8 777 424.58
13	QQSni hisobdan chiqarish	33 783 229.92
14	transport xarajatlari	589 129.89
15	jami	1 345 781 412.31

***Manba: «O'z ERAE Climate Control» MCHJ qo'shma korxonasining yillik statistika ma'lumotlari.**

Quyidagi 2.2.4-jadvaldagi ma'muriy xarajatlar tarkibining eng katta qismlarini mehnat haqi xarajatlari hamda ma'muriy xarajatlar tashkil qilmoqda. Ma'muriy xarajatlarning eng kam qismini esa har xil xarajatlar tashkil qilmoqda. Korxonada sotish hamda ma'muriy xarajatlardan ham eng katta qismini boshqa operatsion xarajatlar tashkil qilgan bo'lib, ularning quyidagi 2.2.5-jadvalda keltirib o'tamiz.

Xarajatlar tarkibida unumsiz xarajatlar mavjudligi e'tiborni jalb etmoqda. Ushbu ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki boshqa operatsion xarajatlar davr xarajatlari tarkibining eng katta qismini tashkil qilmoqda.

Tovar aylanishi hajmi oshsa, davr xarajatlari hajmi ham oshadi va aksincha. Xususan, mazkur sharoitda xarajat moddalarining o'zgaruvchan va doimiy xarakterlarni kasb etishi hamda turlarga ajratilishiga e'tibor qaratilmog'i lozim. Shu boisdan, davr xarajatlari tarkibida hisobga olinuvchi va realizatsiya hajmiga aloqadorligi jihatidan o'zgaruvchan va doimiy xarajat moddalarining to'g'ri tartiblanishi hamda ularning realizatsiya hajmining o'zgarishiga muvofiq o'zgarishlarini belgilashga katta ahamiyat berish tavsiya etiladi.

2.2.5-jadval

Korxona boshqa operatsion xarajatlar takibi.

(so'm)

№	boshqa operatsion xarajatlar tarkibi	summasi
1	bank xizmati	470 657 281.30
2	ma'muriy xarajatlar	26 421 564.80
3	yagona ishtimoiy to'lov	174 416 075.59
4	Asosiy vosita va boshqa mol-mulkni hisobdan chiqarish xarajatlari	3 966 170.81
5	Курьер xizmatlari	1 894 479.65
6	Moddiy yordam	91 185 130.17
7	Moddiy rag'batlantirish	341 808 725.89

8	Material xarajatlari	155 771.38
9	Suv reserslaridan foydalanganlik uchun soliqlar	208 705.07
10	Yer solig'i	22 173 453.96
11	Mulk solig'i	4 751 097.19
12	Soliqlar va to'lovlar	263 143.67
13	asosiy vositalarni ta'mirlash xarajatlari	6 485 386,70
14	transport xarajatlari	61 336 577,59
15	Ilmiy tadqiqot va Tajriba konstruktorlik ishlari	57 099 027,05
16	fuqarolik javobgarligini majburiy va ixtiyoriy sug'urta qilish	2 413 556,50
17	majburiy va ixtiyoriy mulk sug'urtasi	194 993,59
18	davlat pensiya jamg'armasiga ajratmalar	658 772 882,20
19	Respublika yo'l jamg'armasiga ajratmalar	576 426 271,93
20	maktab ta'lim jamg'armasiga ajratmalar	205 866 525,69
21	mukofot	352 832 900,23
22	har xil xarajatlar	42 567 559,42
23	yuqori tashkilotlarni saqlash xarajatlari	205 866 525,68
24	QQSni hisobdan chiqarish	2 835 031,43
25	homiyluk yordamlari	856 904,39
26	jarima va ustamalar	5 236 438,50
27	jami	3 251 290 909,24

****Manba: «O'z ERAE Climate Control» MCHJ qo'shma korxonasining yillik statistika ma'lumotlari.***

Davr xarajatlari tarkibini batafsil ko'rib chiqish, ushbu korxonaning xarajatlarini kamaytirishni ichki imkoniyatlari mavjudligini ko'rsatdi. Biz ularni mazmunan 2 guruhga bo'lish lozim deb topdik.

Xususan:

1. davr xarajatlari notog'ri kiritilgan xarajatlar.
2. Me'yordan ortiqcha xarajatlar.

Xarajatlarning bunday notog'ri turkumlanishi ular ustidan nazoratni susaytirmoqda. Quyida ularni umumlashtirgan holda jamlashga harakat qildik.

2.2.6-jadval

Davr xarajatlarini kamaytirishning ichki imkoniyatlari.

(so'm)

№	Davr xarajatlari tarkibiga notog'ri kiritilgan xarajatlar	summa	Me'yordan ortiqcha xarajatlar	summa
1	asosiy vositalarni ta'mirlash xarajatlari	8 777 424,58	me'yoridan ortiq xizmat xarajatlari	12 521 782,02
2	QQSni hisobdan chiqarish	33 783 229,92 2 835 031,43	asosiy vosita va boshqa mol-mulkni hisobdan chiqarish xarajatlari	3 966 170,81
3	Ilmiy tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlari	57 099 027,05	jarima va ustamalar	5 236 438,50
4	Boshqa operatsion xarajatlarda ma'muriyat xarajatlarini kiritilganligi	26 421 564,80		
	sotish xarajatlari	477 371 036,44		
	Ma'muriy xarajatlar	320 798 533,06		

5	jami	927 085 847.28		21 724 391.33
---	------	----------------	--	---------------

****Manba: «O'z ERAE Climate Control» MCHJ qo'shma korxonasining yillik statistika ma'lumotlari.***

Ko'rinib turibdiki, davr xarajatlarining ortib ketishiga asossiz ravishda qo'shilgan 927 085 847.28 so'mlik xarajatlar va 21 724 391.33 so'mlik me'yordan ortiqcha xarajatlar jami 948 810 238.61 so'mni tashkil qilgan. Ularning ichida jarima va ustama to'lovlar eng samarasiz xarajatlar deb tavsiflanadi. Ular odatda shartnoma shartlarining bajarilmasligi, hisob-kitoblarning o'z vaqtida amalga oshirilmasligi va boshqa kamchiliklar oqibatidir. Ularning bartaraf etish emas balki yo'l qo'ymaslik kerak. Bundan tashqari davr xarajatlari tarkibida sarflanish maqsadi aniq ko'rsatilmagan sotish xarajatlari va ma'muriy xarajatlarni ham e'tiborni jalb etadi. Soliq qonunchiligiga binoan, bunday xarajatlarning aksariyati (soliq kodeksi 147-moddasi) chegirilmaydigan xarajatlarga kiritiladi. Boshqacha qilib aytganda soliqqa tortish uchun soliqqa tortiladigan bazaga qaytadan qo'shiladigan summalar tasniflanadi. Agar 2018-yildagi foyda solig'i stavkasi bo'yicha hisoblab chiqilsa ular 14%lik foyda solig'iga tortiladi ya'ni $948\,810\,238.61 \cdot 14\% = 132\,833\,433.4054$ so'mni tashkil qiladi.

Bu shuni anglatadiki korxona ishlab topgan foydadan yana shuncha budjetga yo'naltiriladi.

2.3. «O'Z ERAE CLIMATE CONTROL» MCHJ qo'shma korxonasi yakuniy iqtisodiy ko'rsatkichlari hamda samaradorligiga ta'siri tahlili

«O'z ERAE Climate Control» MCHJ QK bugungi kunda samarali faoliyat olib bormoqda. Korxonada hozirda 215 ishchi faoliyat ko'rsatmoqda. Shulardan 2 tasi injiner hodimlar 7 tasi buxgalter hodimlardir. Korxonaning 3 yillik faoliyati o'rganilib chiqilganda korxona o'rganilayotgan davr mobaynida 78 790 632 361,19 so'm daromad qilgan. Korxonaning boshqa ko'rsatkichlari quyidagi jadval asosida taqdim etilgan.

2.3.1-jadval.

**«O'Z ERAE Climate Controle» MCHJ qo'shma korxonasida bir-birlik
mahsulot uchun tannarx.**

(ming so'm)

Yillar	O'lchov birligi	2015	2016	2017
Sotish narxi jami(1+..5)	So'm	1279000	1312000	1338000
1.Nexia R3	So'm	235000	240000	244000
2.Damas Labo	So'm	207000	211000	214000
3.Gentra lasetti	So'm	350000	365000	367000
4.nexia	So'm	327000	331000	338000
5.matiz	So'm	160000	165000	175000
Mahsulot tannarxi(1+..5)	So'm	670000	695000	720000
1.Nexia R3	So'm	110000	115000	120000
2.Damas Labo	So'm	95000	100000	105000
3.Gentra lasetti	So'm	200000	205000	210000
4.nexia	So'm	190000	195000	200000
5.matiz	So'm	75000	80000	85000
Mahsulot	Dona	206183	115890	285935

****Manba: «O'z ERAE Climate Control» MCHJ qo'shma korxonasining yillik statistika ma'lumotlari.***

Korxonaning o'rganilayotgan davr mobaynida qilgan sarf xarajati ya'ni tannarxni quyidagi jadval orqali bilib olish mumkin.

Jadvaldagi ma'lumotlarga qaraganda, «O'z ERAE Climate Control» MCHJ QK 2015 – yil 206183 dona mahsulot ishlab chiqargan bo'lib, jami mahsulot tannarxi 670000 so'mga, har bir mahsulotga o'rtacha tannarxi esa 134000 so'mga to'g'ri kelgan.

2016 – yil 115890 dona mahsulot ishlab chiqargan bo'lib, jami mahsulot tannarxi 695000 so'mga va har bir mahsulotga o'rtacha tannarxi 139000 so'mga to'g'ri kelgan. O'tgan yilgiga nisbatan 90293 ta kam ishlab chiqarilgan. Bunga

sabab qilib eski tajribali ishchilarning ketishi o'rinlariga yangi ishchilarning ishga olinishidir.

2017 – yil 285935 dona mahsulot ishlab chiqargan bo'lib, bu ko'rsatkich o'tgan yilgiga nisbatan 170045 ta ko'p ishlab chiqargan . Bunga sabab esa korxonada o'tgan yilda ishga qabul qilingan ishchilarning ish tajribalari oshganligidir.

«O'z ERAE Climate Control» MCHJ QK 2015-2017 yillardagi mehnat unumdorligini quyidagi 2.3.2-jadval orqali ko'rib chiqishimiz mumkin. Jadvaldagi ma'lumotlarga qaraganda, «O'z ERAE Climate Control» MCHJ QK 2015 – yil 34847062342.76 so'mmahsulot ishlab chiqargan bo'lib, bir ishchi bir yilda o'rtacha 252514944.512 so'mlik mahsulot ishlab chiqargan.

2016 – yil 278347740.94.83 so'mlik mahsulot ishlab chiqargan bo'lib, bir mahsulot tannarxi 139000 so'mga to'g'ri kelgan. O'tgan yilgiga nisbatan 27012288247.9so'm nisbatda ishlab chiqarilgan. Mahsulot donaga nisbatan o'tgan yilgiga nisbatan 6034 ta kam ishlab chiqarilgan. Bunga sabab qilib eski tajribali ishchilarning ketishi o'rinlariga yangi kollej bitiruvchilarining ishga olinishidir. Lekin tovarning narxi oshishi munosabati bilan korxona yil oxirida daromad bilan chiqqan.

2.3.2-jadval.

«O'z ERAE Climate Control» MCHJ QK 2015-2017 yillardagi mehnat unumdorligi tahlili.

(ming so'm)

t/r	Ko'rsatkichlar	o'lchov birligi	2015-yil	2016-yil	2017-yil	2016-yilda 2015-yilga nisbatan		2017-yilda 2016-yilga nisbatan	
						(+/-)	%	(+/-)	%
1	Maxsulot xajmi	Ming so'm	27834774	16108796	41174659	-11725978	-57	25065863	255
2	Sanoat ishlab chiqarish xodimlari	Kishi	190	200	215	10	105	15	107.5
	Shu jumladan: ofis xodimlari	Kishi	52	52	52	0	0	0	0

	Ishchilar	Kishi	138	148	163	10	107	15	110
3	Sanoat ishlab chiqarish xodimlari umumiy sonida ishchilarning salmog'i	%	72.6	74	75	1.4	101	1	101
4	1ta ishchiga to'g'ri keladigan o'rtacha yillik ish kunlar	Kun	259	260	261	1	100,3	1	100,3
5	ishlagan vaqtning umumiy miqdori barcha ishchilar bir yilda(kishi -soat)	kishi-soat	393680	416000	448920	22320	105	32920	107
	shu jumladan:bir kishi	kishi soat –	2072	2080	2088	8	100.3	8,0	100,40
6	Mehnat unumdorligi	ming so'm	201701	108843	252605	-92858	53	143762	232
	Bir ishchi	ming so'm	779	419	968	-360	53	549	231

***Manba: «O'z ERAE Climate Control» MCHJ qo'shma korxonasining yillik statistika ma'lumotlari.**

2017 – yil 16108795923.6 so'mlik mahsulot ishlab chiqargan bo'lib, bir mahsulot tannarxi 144000 so'mga to'g'ri kelgan. Bu ko'rsatkich o'tgan yilgiga nisbatan 11725978171.2 so'm kam ishlab chiqargan. Bunga sabab esa korxona yangi, zamonaviy texnika – texnologiya bilan taminlanmaganligi, yangi ishchi hodimlarning ish tajribalarining yo'qligi sabab bo'lgan. Bir ishchi bir yilda o'rtacha 98826968.9 so'mlik mahsulot ishlab chiqargan. Bu ko'rsatkich o'tgan yilgiga nisbatan 89245829.04 so'mga kamdir. Mehnat unumdorligi o'tgan yilgiga nisbatan 48 % kamaygan. Quyidagi jadvalda «O'z ERAE Climate Control» MCHJ qo'shma korxonasida 2015-2017 yillarda amaldagi narxlarda mahsulot ishlab chiqarish va sotish hajmi haqidagi ma'lumotlar keltirilgan.

2.3.3-jadval.

«O'z ERAE Climate Control» MCHJ qo'shma korxonasining 2015-2017-yillardagi iqtisodiy ko'rsatkichlari dinamikasi.

(ming so'm)

№	Ko'rsatkichlar	O'lchov birl.	2015yil	2016yil	2017yil	2016yilda 2015 yilga nisbatan o'zgarishi		2017yilda 2016 yilga nisbatan o'zgarishi	
						+ ; -	%	+ ; -	%
1	Sotishdan tushgan tushum	ming	27834774	16108795	41174659	-11725979	57	39563779	255
2	Tannarxi	ming	19 725 067	10 106 828	28397614	-9618239	51	18290786	280

3	Yalpi foyda	ming	8 109 707	6 001 968	12 777 045	-2107739	74	6775077	212
4	Asosiy vositalar o'rtacha qiymati	ming	15740371	18224188	20124241	2483817	115	1900053	110
5	Ay. mablag'lar qiymati	ming	20763010	21655480	24211316	892470	104	2555836	111
5	Jami hodimlar soni	dona	190	200	215	10	105	15	1.07
5.1	Shu jumladan, Ishchilar soni	dona	138	148	163	10	107	15	1.07
	Raxbar va mutahassislar	dona	52	52	52	0	100	0	100
6	Mehnat unumdorligi	Ming so'm	201701	108843	252605	-92858	53	143762	232
7	Yillik ish haqi fondi	Ming so'm	188400	196400	208400	8000	104	12000	106
8	1-so'm tovardagi harajatlar	%	0.71	0.63	0.69	-0.08		0.06	
9	Fond qaytishi	ming So'm	176	159	144	-17	90	-15	90.5
10	Fond sig'imi	Ming so'm	0.56	0.62	0.68	0.06	110	0.06	109
11	Umumiy rentabellik	%	122	115	128	-7		13	
12	Davr xarajatlari	ming	3 801 357	3 469 759	5 492 688	-331598	91	2022929	158
13	Sof foyda	ming so'm	500 000	277 487	118 339	-222513	55	-159148	0.42

**Manba: „O'z ERAE Climate Controle“ MCHJ qo'shma korxonasining statistik ma'lumotlari*

Yuqoridagi 2.2.3-jadvalda ko'rinib turibdiki, „Oz ERAE Climate Controle“ MCHJ qo'shma korxonasining tovar mahsulotini yildan-yilga o'sib borgan. „Oz ERAE Climate Controle“ MCHJ qo'shma korxonasi 2015-yili 27834774 ming so'm tovar mahsuloti ishlab chiqarishga erishgan bo'lsa, keyingi 2016-yilda esa 16108795 ming so'm teng bo'lib, bu ko'rsatkichni 57% ga kamaygan. Uchinchi yili, ya'ni 2017-yilda tovar mahsulotining hajmi 41174659 ming so'mga o'tkazilib, bazis yilga nisbatan 255% ga ko'paytirildi. Ushbu tahlilni amalga oshirishda quyidagi 1-formuladan foydalanildi.

$$X_n = \frac{X_{1h}}{X_b} \times 100\% \quad (1)$$

Bu yerda

X_n –hisobot yilida bazis yilga nisbatan tovar mahsulotining hajmining o'zgarishi dinamikasi, % hisobida;

X_{1h} va X_{2h} hisobot yillaridagi (birinchi hisobot yili – 2016-yil, ikkinchi hisobot yili- 2017- yilda) tovar mahsulotining hajmi, ming so'm hisobida;

X_b - bazis yil – 2015- yildagi tovar mahsulotining hajmi, ming so'm hisobida;

Ushbu 1-formuladan foydalanib birinchi hisobot yili 2017-yilda bazis yil 2015-yilga nisbatan tovar mahsulot hajmini o'sishini (dinamikasi) topamiz:

$$V_n = \frac{V_{1h}}{V_b} \times 100\% = \frac{41174659}{27834774} \times 100\% = 147\%$$

Absolyut ko'rsatkichda: $41174659 - 27834774 = 13339885$ ming so'm .

Yalpi foydaning (2.2.3-jadval) o'zgarish dinamikasini topishda esa 2-formuladan foydalanamiz, buning uchun har bir yilni alohida hisoblaymiz:

$$Ya_{mn} = \frac{Ya_{mn1x}}{Ya_{mn}b} \times 100\%$$

Bu yerda:

Ya_{mn} -yalpi foydaning o'zgarish dinamikasi, foiz hisobida;

Ya_{mn1x} va Ya_{mn2x} -hisobot yillaridagi (birinchi hisobot yili 2016-yil, ikkinchi hisobot yili 2017-yilda) yalpi foyda summasi, ming so'mda;

$Ya_{mn}b$ -bazis yil 2015-yildagi yalpi foyda summasi, ming so'm hisobida;

Ushbu formuladan foydalanib 2017-yilni 2015-yilga nisbatini topamiz:

$$Ya_{mn} = \frac{Ya_{mn1x}}{Ya_{mn}b} \times 100\% = \frac{12\,777\,045}{8\,109\,707} \times 100\% = 157\%$$

Absolyut ko'rsatkichda esa:

$$Ya_{mn}=12777045-8109707=4667338 \text{ ming so'm}$$

2-formuladan foydalanib 2017-yilni 2016-yilga nisbatini topamiz:

$$Ya_{mn} = \frac{Ya_{mn1x}}{Ya_{mnb}} \times 100\% = \frac{12\,777\,045}{6\,001\,968} \times 100\% = 212\%$$

Yoki absolyut ko'rsatkichda ifodalanishi:

$$Ya_{mn}=12777045-6001968=6775077 \text{ ming so'm.}$$

Ushbu hisob kitoblardan ko'rinib turibdiki, «O'z ERAE Climate Control» MCHJ qo'shma korxonasining o'rganilayotgan davr mobaynida o'zining yalpi foydasini 157% ga yoki 4667338 ming so'mga oshirishga erishgan. Lekin 2016- yildagi ko'rsatkich 2015-yilga nisbatan kam chiqishi yaqqol ayon bo'lib turibdi. Chunki korxona 2016-yilda bankdan juda katta miqdorda kredit olganligini e'lon qilgan.

Har qanday tashkilotning umumiy iqtisodiy rivojlanishini ko'rsatuvchi ko'rsatkich – bu tashkilotlarning umumiy rentabelligi hisoblanadi. Bu ko'rsatkichni 2.3.3-jadvaldan foydalangan holda quyidagi formula orqali topamiz.

$$Ru = \frac{Y}{A.v.q + Ay.m.q.} = 100\% \quad (3)$$

Bu yerda:

Ru-umumiy rentabellik, foiz hisobida;

A.v.q-asosiy vositalarning yillik o'rtacha qiymati, ming so'm;

Ay.m.q-aylanma mablag'larning yil oxiriga qiymati, ming so'm.

«O'z ERAE Climate Control» MCHJ qo'shma korxonasining o'rganilayotgan davr mobaynidagi umumiy rentabelligi ushbu formuladan foydalangan holda topamiz.

$$2015\text{-yilda: } Ru = \frac{Y}{A.v.q + Ay.m.q.} = 100\% = \frac{8\,109\,707}{15740371 + 20763010} \times 100\% = 122\%$$

$$2016\text{-yilda: } Ru = \frac{Y}{A.v.q + Ay.m.q.} = 100\% = \frac{6\,001\,968}{18224188 + 21655480} \times 100\% = 115\%$$

$$2017\text{-yilda: } Ru = \frac{Y}{A.v.q + Ay.m.q.} = 100\% = \frac{12\,777\,045}{20124241 + 24211316} \times 100\% = 128\%.$$

Ko'rib chiqqanimizdek «O'z ERAE Climate Control» MCHJ qo'shma korxonasi 2017-yilda juda katta samaradorlikka erishgan ammo 2016-yilda 2015-yilga nisbatan samaradorligi sezilarli darajada past bo'lgan. Bunga sabab yuqorida aytib o'tganimizdek korxona o'z faoliyatini kengaytirish maqsadida bankdan kredit olganligi va bunda bank hizmati xarajatlari hamda yangi texnologiyalarni olib kelib o'rnatish xarajatlari keskin oshib ketganligi sabab bo'lgan.

III-BOB. «O`Z ERAE CLIMATE CONTROL» MCHJ QO`SHMA KORXONASI DAVR XARAJATLARINI KAMAYTIRISH MUAMMOLARI VA IMKONIYATLARI.

3.1 «O`Z ERAE CLIMATE CONTROL» MCHJ qo'shma korxonasida davr xarajatlarini kamaytirishning imkoniyatlari.

Xarajatlarning maqsadli va natijaviyligi xo'jaliklar moliyaviy hayotida naqadar muhimligi, mazkur iqtisodiy kategoriyaning mohiyati, mazmunini nazariy jihatdan bozor tamoyillariga tayangan bugungi kun talablari asosida aniq, to'laqonli ifodalashni taqozo qilmoqda. Mazkur maqsadga erishish uchun «xarajat»

kategoriyasining iqtisodiy mazmunini yoritishda adabiyotlar va ayrim manbalardagi mavjud fikrlarning tahliliy xulosalarini keltirishni joiz topdik.

Xarajatlarga faqatgina chiqim sifatida va uning ayrim elementlar vositasida qarash quyidagicha fikrga olib keladi: «Xarajatlar -ishlab chiqarish faoliyati jarayonida yuzaga kelgan chiqim. Ularga sotilgan mahsulot tannarxi, noishlab chiqarishdagi ma'muriy xarajatlar, foizlarni to'lash, ijara to'lovi, ish haqi, soliqlar kiradi»². Yuqorida keltirilgan ta'rif juda tor doirada ifodalangan bo'lishi bilan birgalikda, umumiylik ko'lami jihatidan ham ayrim qirralarni qamrab olgan xolos. Sababi, unda ishlab chiqarishga yondoshilgan hususiyatlar o'z aksini topishi bilan - birgalikda, «Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida»³gi Nizomda³ keltirilgan xarajat turkumlaridan ayrim elementlarigina sanab o'tilgan.

Xarajatlarni faqatgina mahsulotni ishlab chiqarish va iste'molchiga yetkazib berishdan iborat, deb qarasak, u holda quyidagi fikrni o'rinli deb sanash mumkin. «Ishlab chiqarish sarf-xarajatlari deganda tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish va iste'molchilarga yetkazib berishga qilinadigan barcha sarflar tushuniladi»⁴. Lekin, bu holatda ham mazkur tushunchaning iqtisodiy mohiyati to'liq ochib berilmagan. U ayrim iqtisodiy voqeliklarga ko'ra xarajatlar haqida xulosa chiqarganligini ifodalamoqda.

Xarajatlar tannarxni tashkil qilishda ham bevosita ishtirok etib, uni xarajatlar yig'indisi sifatida uch tomonlama ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Ya'ni: birinchidan xarajatlar mavjud resurslardan foydalanish evaziga aniqlanadi; ikkinchidan, xarajatlar foydalanilgan resurlarning pul o'lchamida ifodalanishini aks ettiradi; uchinchidan, xarajatlar ularni amalga oshirish maqsadlariga ko'ra aniqlanadi mahsulot ishlab chiqarish, korxona bo'limlari faoliyati va hokazo. Bu xarajatlarni tannarx bilan bir xil ma'nodosh sifatida qaralishini keltirib chiqaradi. Ya'ni: «Tannarx (xarajatlar) aniq maqsadlarda foydalanilgan resurslar hajmining puldagi ifodasidir». Mazkur ta'rif tannarx xarajatlardan tashkil topishi nuqtai nazaridan o'rinlidir. Bu o'rinda, barcha xarajatlar ham tannarxni tashkil qilavermasligini alohida ta'kidlash zarur. Mahsulot qiymatiga qo'shilmaydigan

xarajat turlari ham mavjud. Xarajatlarning amalga oshirilishi korxona xo'jalik faoliyatida mablag'larni yanada ko'paytirish maqsadida vaqtincha kamayishiga olib kelishini aks ettiruvchi quyidagi keltirilgan fikr o'rinlidir va bu mohiyatni to'laroq aks ettirgan.

Hozirgi kunda mamlakatimizda ko'plab aktsiydorlik jamiyatlari, qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Bunday zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan jixozlangan korxonalarda ishlash uchun yuqori malakali kadrlarni maxsus rejalar asosida qabul qilish, tarbiylash va ularning malakasini doimiy oshirib borishda xorijiy kompaniylarning tajribalaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Rivojlangan mamlakatlarning aksariyat yirik kompaniylari o'zlarining kadrlar siyosatini ishlab chiqish va olib borish markazlariga ega. Bunday markazlarda oddiy ishchilardan tortib, to «top manajer»largacha kadrlarni rejalashtirish, ularni muntazam o'qitish va qayta tayyorlash ishlari yo'lga qo'yilgan. AQShda ishlab chiqarish va uni boshqarishni avtomatlashtirish yaxshi yo'lga qo'yilgan bo'lib, kadrlar bilim darajasini ushbu tizimga mutanosib bo'lishini talab qiladi.

Zamonaviy ishlab chiqarish sohasida innovatsion jarayonlarning kuchayishi kadrlar bilan ishlashda, ularning mehnat unumdorligini oshirishda, ish joylarini optimal jixozlash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bunda kadrlarning kasb tayyorgarligini va qayta tayyorlashni to'g'ri rejalashtirish va amalga oshirishga katta e'tibor berish talab qilinadi. Bu esa jonli mehnatni qiymatlashib borishiga olib keladi.

«Xarajatlar asosida korxona aktivlarining kamayishi, ya'ni sarflanishi hamda asosiy va doimiy faoliyat yo'nalishini tashkil qiluvchi, mahsulot jo'natish, tovarlar ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish yoki faoliyatning boshqa ko'rinishlari natijasida yuzaga keluvchi majburiyatlar tushuniladi»⁶. Ya'ni sarflangan har bir birlik mablag' aktlavlari summasini ma'lum miqdorga qisqartiradi. Mazkur davrga tegishli xo'jalik faoliyati jarayonida xususiy kapitalning kamayishiga olib keluvchi

xarajatlardir, ular korxonaning doimiy faoliyati jarayonida yuzaga keladi va mos daromadlarni olib kelishga xizmat qiladi.

Har bir sarflangan mablag'ga iqtisodiyotning «xarajat- daromad» printsipli nuqtai nazaridan nazar tashlash, mazkur tushunchaga nisbatan bildirilgan quyidagi fikr eng umumiy va aniqdir. «Xarajatlar -foydali natijalarga erishish maqsadida, foydalanilgan mablag'lar hajmining puldagi ifodasidir»⁷. Mazkur ta'rifga to'liq hamfikir bo'lgan holda shuni ta'kidlash joizki, haqiqatdan ham korxonada xarajatlarning amalga oshirilishi aktivlar hajmining qisqarishiga olib keladi, lekin maqsad foydali manfaatlarni qondirishdan iborat. Aksariyat korxonalar ustav kapitalining tashkil bo'lishi, bozor iqtisodiyoti sharoitida aksionerlarning ulushlari hisobiga shakllanishi nuqtai nazaridan quyidagi ta'rif iqtisodiy mazmunini ifodlagan.

Xarajatlar-MHXSning «Tamoyillar» bo'limi, «Moliyaviy hisobot elementlari» guruhining «Faoliyat natijalari» nomlibandi 70-moddasi (b)-satriida ham o'z aksini topgan va bu Rossiya Federatsiyasining 1999 yil oktyabrida qabul qilingan «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi Nizomining 2-paragrafi bilan to'liq mos tushadi. «Xarajatlar deb-joriy davrda, aktivlarshshg chiqib-ketishi yoki kamayishi shaklida, yoki aksionerlik kapitali ishtirokchilari o'rtasida taqsimlanishiga bog'liq bo'lmagan holda kapitalning kamayishiga olib keluvchi majburiyatlarning ko'payishini ifodalovchi iqtisodiy manfaatlarning kamayishidir»⁸. «Moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim etish uchun kontseptual asos» BHMSning «Moliyaviy hisobot elementlari» bo'limi 38.6-moddasida: «Xarajatlarhisobot davrida aktivlarning kamayishi yoxud majburiyat-larning ko'payishidir», tarzida sodda keltirilgan.

Yuqorida sanab o'tilgan barcha fikrlarni mujassamlashtirib quyidagicha xulosaga kelindi: Xarajat- foydali natijalarga erishish maqsadida, aktivlarni sarflash hisobiga xususiy kapital miqdorining vaqtincha kamayishiga olib keluvchi majburiyatlarni yuzaga kelishidir. Fikrimizcha, keltirilgan ta'rif xarajatlarning maqsadliligi, qanday mablag' hisobiga amalga oshirilishi va majburiyatlarning yuzaga kelish shakli jihatida barcha qirralarini ifodalagan. Xarajatning sarflanish

maqsadi yoritilmasa va foydaning kamayishi shaklida talqin qilinsa, u holda mazkur tushuncha «zarar»ni aks ettirgan bo'lar edi. Xarajatlar ma'lum mezonlarga ko'ra turkumlanadi va ularni chizma shaklida ifodalash mazmunan tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi. Korxona mahsulot ishlab chiqarishni ta'minlash uchun, kelib chiqishiga ko'ra turli xil xarajatlarni amalga oshiradi. Ishlab chiqarilayotgan mahsulotning hajmi aynan shu xarajatlar xajmining o'zgarishiga bog'liq tarzda o'zgaradi. SHundan kelib chiqqan holda, doimiy (o'zgarmas) va o'zgaruvchan xarajatlar yuzaga keladi va bir biridan farqlanishadi.

O'zgarmas xarajatlar-ishlab chiqarish hajmiga bog'liq bo'lmagan xarajatlarni ifodalasa, o'zgaruvchan xarajatlar esa ishlab chiqarish hajmi darajasiga bevosita aloqador bo'lgan sarflarni ifodalaydi¹⁰. Mazkur xarajatlar, bozor iqtisodiyotida buxgalteriya hisobining muhim vazifalaridan sanalgan-bahoni to'g'ri va oldindan aytish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar me'zonini belgilab beradi.

G'arb hisob tizimi va Amerika boshqaruv hisobi gazimida ham xarajatlarni aniq quyidagi turlarga ajratadi: a) o'zgaruvchan xarajatlar ishlab chiqarilgan mahsulotlarning hajmiga to'g'ri mutanosib o'zgaruvchan xarajatlar; b) doimiy xarajatlar ishlab chiqarish hajmi o'zgarganligi bilan ma'lum davrdagi xarajatlar qismining umumiy summasi o'zgarmaydi»¹¹. Keltirilgan fikrlarning xilma-xilligi xarajatlarga turli nuqtai nazarlardan qaralishining natijasidir. Bunda biz uchun muhim o'rinda ularning o'zgaruvchan va o'zgarmas (doimiy) tarzda nisbatining olinishidir, chunki iqtisodiyotimizning milliy qonunchiligida xarajatlar aynan shunday guruxlarga ajratilgan. Fikrimizcha, xarajatlarni o'zgaruvchan va o'zgarmas tarzda ifodalash buxgalteriya hisobi ob'ekti bo'la olmaydi. CHunki bunday guruxlashtirish nisbiy bo'lib, xarajatlarni qanday manbalar hisobidan qoplash mumkinligini ifodalash natijasida kelib chiqqan. Ya'ni, o'zgaruvchan xarajatlar mahsulot tannarxiga kiritilib, bevosita sotishdan tushgan tushumda mujassamlashsa, o'zgarmas xarajatlar esa bevosita xo'jalikning moliyaviy natijalari hisobidan qoplanadi. Biz uchun ahamiyatli bo'lgan o'zgarmas xarajatlar mohiyatiga to'xtalish maqsadga muvofiqdir.

O'zgarmas xarajatlar xususida mualliflar tomonidan bir qancha fikrlar berilgan bo'lib, ular ko'proq ishlab chikarish bilan bog'liq bo'lmagan sarflarni nazarda tutishgan. Lekin shunday keltirilgan qarashlar ham borki, unda xarajatlar ishlab chikarish jarayoniga tegishli bo'lsada, o'zgarmaydigan ishlab chikarish xarajatlari sifatida ifodalangan. Quyidagi ta'rifda aynan shu jihatlar nazarda tutilgan: «Hisobot davri davomida haqiqatda o'zgarmaydigan ishlab chikarish xarajatlari doimiy ishlab chikarish xarajatlari deb yuritiladi. Hatto mahsulot ishlab chikarish hajmi o'zgarganda ham o'zgarmaydi». Amalda moliyaviy qonunchiligimizga muvofiq: ishlab chikarish vositalarining to'g'ri proporsional uslubda amortizatsiyalanishi bilan bog'liq xarajatlar bunga misoldir.

Keltirilgan qarash o'zgarmas (doimiy) xarajatlarning qisman ishlab chikarish xarajatlari bilan umumlashtirib yuborilishi yoki ayrim xarajat moddalarining hususiyatli jihatlari natijasida kelib chiqqan. Xarajatlarning «doimiy» deb nomlanishining mazmuni shundan iboratki, ular korxona mahsulot ishlab chikarish hajmining o'zgarishiga bog'liq bo'lmagan tarzda amal qiladi. SHuningdek, ular joriy xarajatlar sirasiga tegishlidir. Mazkur xarajatlar korxonada kunlik tarzda, ya'ni ishlab chikarish faoliyatini davom ettirish uchun va hayotiylikni ta'minlash uchun zarurdir.

Doimiy xarajatlar mahsulot ishlab chikarishning kritik hajm darajasini aniqlashda ham ishtirok etadi va bunda mahsulot ishlab chikarishning o'zgarish oraliqlariga, sabablariga e'tibor berish muhimdir. Kritik hajm darajasida mahsulot ishlab chikarishning fizik hajmi qat'iy baxolarda va doimiy xarajatlarda belgilanadi. Uning o'zgarishi esa ta'sir birliklari farqlanishlari va bog'lanishlari asosida aniqlanadi. Yuqorida doimiy xarajatlarning mazmuni va ular ishtirokida mahsulot ishlab chikarishning kritik hajmi darajsining aniqlanishi borasida bejiz fikr yuritilgani yo'q. CHunki, Nizomda keltirilgan davr xarajatlari elementi iqtisodchi olimlar tomonidan doimiy xarajatlar sifatida e'tirof etilmoqda. Lekin, amalda faoliyat yuritayotgan xo'jalik sub'ektlarining sarflagan davr xarajatlari tarkibiga nazar tashlansa, unda ishlab chikarish hajmi bilan aloqador bo'lgan

xarajat moddalarlashg mavjudligi va ularning davr xarajatlari umumiy miqdorida ulushi yuqoriligini ko'rish mumkin.

Demak, davr xarajatlari tarkibida ishlab chiqarish va realizatsiya hajmi bilan aloqador xarajatlarning mavjudli, mazkur xarajat elementini "Direct-costing" tizimidagi «Doimiy xarajatlari» bilan bir hil ma'noda qabul qilishni inkor qiladi. Davr xarajatlari tushunchasining iqtisodiyotimizga kirib kelganiga ko'p vaqt bo'lmaganligi hamda hususiyatiga ko'ra o'zida doimiy xarajatlarni to'liq aks ettirmaganligi sababli bugungi kunda ham iqtisodchi olimlar o'rtasida mazkur xarajat elementini turli hil tarzda talqin qilish holllari kuzatilmoqda. Jumladan, davr xarajatlarni birinchi guruhga mansub olimlar ishlab chiqarish xarajatlari tarkibida aks ettirsalar, ikkinchi gurux moliyaviy natijalar bilan mujassamlashgan holda, shuningdek uchinchi guruh alohida tarzda ifodalamoqda.

Fikrimizcha, davr xarajatlari elementi alohida mustaqil iqtisodiy kategoriyadir. Yangi tahrirdagi Nizomga ham jamiyatning iqtisodiy rivojlanishiga monand ravishda va respublika soliq tizimining jadallashishi natijasida o'n bir marta, o'zgartirishlar kiritildi, shundan, oxirgisi O'zR VM 11.03.2009 y. 63-son qarori shular jumlasidandir. Mazkur Nizom maqsadiga ko'ra: mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish davomida xo'jalik yurituvchi sub'ektda paydo bo'ladigan barcha xarajatlari to'g'risida buxgalteriya hisobi schyotlarida to'liq va aniq axborotni shakllantirish; xo'jalik yurituvchi sub'ekt faoliyatining iqtisodiy rentabelligi ko'rsatkichlarini qayd qilish; faoliyatning bozor raqobatbardoshligini aniqlash hamda xo'jalikning davlat byudjeti bilan bo'ladigan o'zaro iqtisodiy munosabatining ifodasi bo'lgan, soliq solish bazasini to'g'ri aniqlash uchun ishlab chiqilgan.

Xarajatlarni Nizomda keltirilgan uslub kabi hisobini yuritish tartibi, Respublikamizga rivojlangan g'arb davlatlari amaliyotidan kirib keldi. Bundan ko'zlangan maqsad, jahon iqtisodiyotida qo'llanilishi kengayib borayotgan

«qisqartirilgan tannarx» tizimiga o'tishdan iborat. Mazkur tizimda tannarxga faqatgina ishlab chiqarishdagi bevosita va bilvosita xarajatlari olib borilib, ishlab

chiqarish bilan bog'liq bo'lmagan faoliyat xarajatlari davr xarajatlari sifatida moliyaviy natijadan qoplanadi.

3.2. Davr xarajatlarini kamaytirishning yo'llari va usullari

Iqtisodiy fanga “mehnat resurslari” tushunchasining kirib kelishi bilan undan samarali foydalanish, mehnat resurslarini faollashtirish, mehnat resurslaridan foydalanishni takomillashtirish borasida ham ilmiy, nazariy, amaliy tajribalar, izlanishlar olib borildi. Mehnat resurslarining faolligini oshirishda, undan foydalanishni takomillashtirishda olib boriladigan konkret faoliyat g'oyatda ko'p qirralidir. Mehnat resurslarini faollashtirish ma'naviy qadriyatlarni shakllantirishning murakkab jarayonlari, oilaviy muammolar, uy va maktab tarbiyasi, kadrlar siyosati, insonning jismoniy sog'ligi, madaniy an'analarni saqlash, ta'lim, mehnat sharoitlari va boshqalardan iborat ko'p qirrali muammoni o'zida mujassamlashtiradi. SHu sababdan ham mehnat resurslaridan foydalanishni takomillashtirish yo'lari tahlil qilinganda turli tadqiqotlarda turlicha yo'nalishlar yoritiladi.

Mehnat resurslarini faollashtirish, undan samarali foydalanish foydalanish yo'llari turli tadqiqotlar, ilmiy risolalar va adabiyotlarda son va tarkib jihatdan farq qilsada, ularni umumlashirgan holda shuni ko'rsatish mumkin-ki, mehnat resurslaridan foydalanishni takomillashtitish quyidagi yo'nalishlarda olib boriladi va bu boradagi tadqiqotlarda ushbu yo'nalishlardan biriga ko'proq, biriga kamroq darajada e'tibor qaratish asosida xilma-xil yondashuvlar taxlil qilinadi. Ushbu yo'nalishlar quyidagilardan iborat: firmada faoliyat ko'rsatayotgan ishchi va xodimlar malakasini oshirish, ularni qayta o'qitish va kasbiy tayyorlash; mehnat sharoitlarini yaxshilash; samarali motivatsiya olib borish; ish haqini firma ichida tartibga solish boshqaruv madaniyatini tashkil qilish; sog'liqni saqlash tizimini yaxshilash va boshqalar.

Ishchi kuchi malakasini oshirish. XX asrning ikkinchi yarmida jahon miqiyosida chinakam mo'jiza ro'y berdi. Asrlar davomida qoloq va qaram bo'lib kelgan bir guruh mamlakatlar faqatgina mehnat resurslari tufayli, boshqarishning

zamonaviy texnologiyalarini ishlatgan holda tarixan juda qisqa vaqt ichida texnikaviy jihatdan ilg'or mamlakatlarga aylandilar. Ular o'zlarining yuqori sifatli va raqobatbardosh mahsulotlari bilan jahon bozorlarini egallay boshladilar. SHular qatoriga Gon-Kong, Janubiy Koreya, Malayziya, Tailand mamlakatlarini misol qilib olsa bo'ladi. Bu mamlakatlar tabiiy xom-ashyoga boy emaslar. O'tgan asrning 70-yillaridan boshlab ular asosiy investisiyalarni mehnat resurslarini rivojlantirishga sarfladilar. Yoshlarni rivojlangan xorijiy mamlakatlarga o'qishga yuborib ilg'or texnikaviy bilimlarni «sotib oldilar». Bu bilimlar mamlakatning intellektual mulkiga aylandi. Albatta bu mamlakatlar xalqlarining mehnat sevarligi, qobiliyati va boshqa psixologik xususiyatlarini hisobga olmaslik mumkin emas. Ammo ko'pgina mamlakatlarda ham yuqori mehnat qobiliyatiga ega bo'lganlar oz emas. Lekin ular shunday imkoniyatlarini ishga sola olmaganlar.

Kadrlarning kasbiy tayyorgarligini oshirish va rivojlantirish yangi texnika va texnologiya, ish bilan bandlik sohasidagi o'zgarishlar, fan-texnika taraqqiyoti, xo'jalik mexanizmining qayta qurilishi bilan bevosita bog'liqdir. Texnikaning tezlik bilan yangilanishi, axborotlar va yangi bilimlarning kirib kelishi ishchilar, injener-texnik xodimlar, xizmatchilarning to'xtovsiz o'qitilishi va malakasining oshirilishini talab qiladi. Bugungi kunda tez texnologik o'zgarishlar sababli yuzaga kelgan birinchi navbatdagi muammolardan biri kompyuter savodxonligi bilan bog'liq. Ish joylarini taklif qilayotgan e'lonlar tahlili shuni ko'rsatadiki, bugungi kun kompyuter mutaxasisi eng avvalo ijodiy va kasbiy jihatdan yetuk shaxs bo'lishi kerak. U mustaqil fikrlay olishi va korxona manfaatlari uchun xizmat qilishi kerak.

Bugungi kunda g'arb mutaxasislarining baxolariga ko'ra ishchi bilimlari yarmining eskirish davri 3-5 yilga qisqardi, ya'ni endilikda, 3-5 yil ichida ishchi bilimlarining yarmi talabga javob bermay qo'yadi. Mehnat tobora ko'proq malaka va bilimlarni talab qilmoqda. Kam ixtisoslashgan eski kasblar va qo'l mehnati asta-sekin yo'qolib bormoqda.

Yuqori malakali xodimga ega bo'lgan korxonalar ishda ancha yutuqqa erishadilar. Xodimlarni o'qitish zaruriyati quyidagi hollarda tug'iladi:

- Yangi xodim ishga qabul qilinganda;
- Xodimning lavozimi o'zgarganda;
- Malakasini, bilim darajasini oshirish maqsadida o'qitish;
- Korxonadagi ruhiy muhitni o'zgartirish maqsad qilinganda;
- Ishlab chiqarish jarayonini o'zgartirish maqsad qilinganda;
- Mahsulot tarkibini o'zgartirish maqsad qilinganda va hokazo.

O'qitish:

- Ishlab chiqarishdan ajralgan holda ikki haftalik;
- Ishlab chiqarishdan ajralmagan holda ikki yillik;
- Maxsus tayyorlangan kompleks dastur asosida;
- Rahbarlar kuchi bilan;
- Maxsus topshiriqlar bilan;
- Turli korxonalarga malaka oshirishga jo'natish yo'li bilan;
- CHet ellarga o'qitishga yuborish yo'li bilan;
- Seminar va konferensiyalarga jalb qilish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Xodimlar malakasini oshirish quyidagi vazifalarning bajarilishini nazarda tutadi:

- Qisman unutilishi mumkin bo'lgan bilimlarni tiklash;
- Fan-texnika taraqqiyoti, ishlab chiqarish, mehnat va boshqarishni tashkil etish tizimlaridagi o'zgarishlar bilan bog'liq bo'lgan yangi muammolarni, yangi ish uslublarini o'rganish;
- Boshqaruvni qayta tashkil etish va qayta qurish, mehnatning jamoa turlarini tashkil etishning tutash kasblarini egallashni talab etuvchi xar-xil shakllarining rivojlanishi munosabati bilan xodimlarni boshqa malakaga tayyorlash.

Respublikamizda "Kadrlar tayyorlash to'g'risida"gi milliy dasturning qabil qilinishi mamlakatimiz iqtisodiyoti uchun malakali kadrlar yetkazib berishning asosiy yo'nalishlari va bosqichlarini belgilab berdi. Bugungi kunda respublikamiz mustaqilligi sharoitida xodimlarni o'qitish jahonning eng rivojlangan mamlakatlarida ham olib borilmoqda. Bu turdagi o'qitish ham ikki maqsadni ko'zlaydi:

- Respublika uchun zarur bo'lgan mutaxassisliklar bo'yicha jahon talablariga javob beradigan xodimlarni tayyorlash;
- Mutaxassis xodimlarning ilg'or xorijiy davlatlar oliy o'quv yurtlarida zamonaviy bilimlarni egallash.

Bu kabi mutaxassis xodimlar mustaqil O'zbekistonimizning iqtisodiyotini, fan va texnikasini, ishlab chiqarishini jahon talablariga javob beradigan qilib taraqqiy ettirishlari juda ham zarur.

Mehnat resurslaridan samarali foydalanishda mehnat sharoitlarini yaxshilash muhim ahamiyat kasb etadi va ilmiy tadqiqotlarda bu yo'nalishga alohida urg'u beriladi. Rivojlangan mamlakatlarda mehnat sharoitlari, inson va texnika o'rtasidagi munosabatlarni tashkil qilish alohida fan – ergonomika (“ergos” – mehnat, “nomos” – qonun, qoida) sifatida o'rganiladi. Ushbu faktning o'zi ham mehnat sharoitlari mehnat resurslarini faollashtirishda qanchalik muhim ahamiyat kasb etishini va unga jiddiy munosabatda bo'lish zaruriyatini ko'rsatib beradi.

Ishlab chiqarish muhiti avvalambor mehnatning sanitar-gigienik sharoitlari (harorat, shovqin, yoritilganlik, changlanganlik, gazlanganlik, vibratsiya va hokazo), ish faoliyatining xavfsizligi, mehnat va dam olish rejimi, shuningdek korxonada ishlovchilarning o'zaro munosabatlari orqali xarakterlanadi.

SHunday qilib mehnat sharoiti texnik, tashkiliy, psixofiziologik, ijtimoiy, xuquqiy va boshqa jabxalar nuqtai nazaridan ko'rib chiqiladi.

Mehnat sharoitlarini loyixalash korxonada ishlovchilarning jinsi, yoshi, salomatligi, malakasi, psixologik va ijtimoiy xarakteristikalarini hisobga olingan holda amalga oshiriladi. Umumiylik va majburiylik darajasi turlicha bo'lgan tavsiyalar va normativ materiallar tizimi (Xalqaro mehnat tashkiloti tavsiyalari, tarmoq, hududiy, zavod, korxona, firma normalari) ishlab chiqilgan bo'lib, ular mehnat sharoitlari loyihalashtirilayotganda hisobga olinishi shart. Mehnat sharoitini reglamentlovchi asosiy direktiv hujjatlarga korxonalarni loyihalash bo'yicha sanitar normalar, qurilish normalari va qoidalari, Davlat standartlari, texnika xavfsizligi va mehnat muhofazasi talablari kiradi.

Sanoat korxonalarini loyihalashda sanitar normalarda ish joyidagi zararli moddalarning yo'l qo'yilgan konsentratsiyasi belgilab qo'yiladi. Normal mehnat sharoitini ta'minlash uchun texnologiyalarni takomillashtirish, qurilmalarni avtomatlashtirish va germetik berketish, ishlab chiqarish binolarini shamollatish ishlarini olib borish zarur.

«O'z ERAE Climate Control» MCHJ qo'shma korxonasida davr xarajatlarini kamaytirish nafaqat ushbu korxonada balki har qanday ishlab chiqarish korxonasida ham juda ko'p yo'llar mavjud bo'lib ularga:

- mehnatni muhofaza qilish va texnika xavfsizligi xarajatlarini kamaytirish yo'llarini izlab topish;

- maxsus kiyim-bosh va poyafzalni yuvish va tuzatishga materiallarni sifatlisidan foydalangan holda, ko'p xizmat qiladigan kiyimbop material xarid qilish. Bunda sifatli material sotib olish bilan korxona davr xarajatlari oshib ketishi mumkin ammo kelgusi davr xarajatlari qisqarishiga olib kelishi aniq holatdir;

- bozorda korxona mahsuloti o'z o'rnini egallagan so'ng, oshiqcha reklama xarajatlarini kamaytirish;

- savdo ehtiyojlari uchun foydalaniladigan binolar, inshootlar va xonalarni ijaraga olishda kelishilgan xolda sifatlisini hamda binoni ta'mirlash xarajatlari yo'qligiga ishonch xosil qilgan xolda ijara shartnomasini belgilash;

- mahsulotni sotish bilan bog'liq mehnatga haq to'lash xarajatlarini imkon qadar kamaytirish;

- jahon amaliyotida qo'llanilayotgan CIB VA FOB qoidalariga rioya qilgan holda xaridor korxona va sotuvchi korxona o'rtasidagi yetkazib berish transport xarajatlarini oldini olish;

- tashish, saqlash va sotish chog'ida tovarlarning norma doirasida va undan ortiqcha yo'qotilishini oldini olish uchun unga maxsus bir ishchi xodim tayyorlash;

-solliq qonunchiligi va boshqa qonunlarni buzganlik uchun jarima va penyalarni kamaytirish;

-transport qoidalarini buzganlik uchun haydovchi hodimlarni ish haqlaridan ustama ushlab qolish.

Xulosa va takliflar

Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlar qatorida munosib o'rin egallash, milliy mahsulotlarimizning jahon bozorlaridagi raqobatdoshligini ta'minlash, shu asosda eksport hajmini sezilarli darajada oshirish mavjud soha va tarmoqlarni texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash asosida modernizatsiyalashni taqozo

etadi. Ayni paytda, jahon bozoridagi ehtiyoj va talabning o'zgarishini hisobga olgan holda iqtisodiyotimiz tarkibiy tuzilmasini takomillashtirib borish, bu maqsadda yangi, zamonaviy tarmoqlarni barpo etish va jadal rivojlantirish lozim bo'ladi.

Davr xarajatlarini tarkibini batavsil o'rganish asosida shu narsalar aniqlandiki import bo'yicha valyuta almashtirish birja sarflari ham davr xarajatlari tarkibiga kiritilgan. Avvalo bu xarajatlarning davr xarajatlariga kiritilishi o'zi 4-Buxgalteriya xisobi milliy standartlariga asosan noto'g'ri deb hisoblanishi mumkin. Ikkinchidan, valyuta operatsiyalari xususida, bu jarayonlar doimiy ravishda ro'y berayotganligini hisobga olib korxona o'z siyosatini ishlab chiqishi lozim.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki QQS ham davr xarajatlariga kiritilyapti. Bu xarajatlar odatda budjetga soliqlar va to'lovlar bo'yicha hisob-kitob qilinishi kerak. Demak korxonada hisob tizimi va hisob siyosatini ko'rib chiqish kerak.

Barqaror faoliyat yuritishni ta'minlash, korxonalarda ishlab chiqarish jarayonini takomillashtirish hamda ular to'g'risidagi axborotlar paketini shakllantirishda kombinatlarning amalga oshirayotgan xarajatlari natijaviyligi hamda u haqdagi ma'lumotlar manbai sanalgan buxgalteriya hisobi muhim belgilovchi omil hisoblanadi. Ayniqsa, moliyaviy natijalarga bevosita ta'sir xususiyatiga ega bo'lgan xarajat guruhlarini tarkibidagi davr xarajatlari elementining hisobotlarning xalqaro standartlar doirasida shakllantirish, korxonalarda ishlab chiqarish sohasi hisobot tizimini jahon tartib-qoidalariga moslashtiradi. Jumladan, ishlab chiqarish korxonalarining davr xarajatlari hisobini takomillashtirish, moliyaviy natijalarga ta'sirini imkon qadar aniqlashtirish hamda hisob tizimini rivojlantirishda hal qilinishi lozim bo'lgan bir qancha masalalar mavjulligi ilmiy tadqiqot jarayonida aniqlandi va ularning yechimi bilan bog'liq bir necha nazariy va amaliy xulosalar olindi. Ular quyidagilardan iborat:

1. Hamdo'stlik davlatlari hamda mamlakatimiz iqtisodchi olimlarining fikrlari tahlil qilingan holda, «Xarajatlar», «Aktivlar», «Majburiyatlar» tushunchasining

mazmun-mohiyatini kengroq ochib berish maqsadida, ularni quyidagicha ta'riflash tavsiya qilindi:

1.1.Xarajat-foydali natijalarga erishish matssadida, aktivlarni sarflash xisobiga xususiy kapital miqdorining vaqtincha kamayishiga olib keluvchi majburiyatlarni yuzaga kelishidir.

1.2.Aktivlar -korxona ixtiyoridagi moddiy va nomoddiy ko'rinishga ega bo'lgan barcha boyliklar jamg'armasidir.

1.3.Majburiyatlar-mavjud sanagacha bo'lgai davrlarda korxonaning barcha qarzleri, ularning qoplanishi natijasida mablag'larning sarflaiishi ko'rinishida manfaatlarning qisqarishidir.

2.«Foyda» tushunchasining «Daromad» va «Tushum» tushunchalaridan farqli jihatlari aniq aks ettirilib, unga alohida quyidagicha tarif berildi: Foyda -bu daromadlar va xarajatlar fartslanishidagi ijobiy (musbat) natijaviylikdir.

3.«Zarar» tushunchasining mazmuni ochib berildi va quyidagicha ifodalandi: Zarar -bu aktivlarning kelgusida hech qaiday ijobiy natijaviylik keltirmaydigan isrofga yuz tutishidir.

4. MXXSlari talablaridan kelib chiqib hamda MDH, G'arb va mamlakatimiz iqtisodchi olimlarining fiklari keng tahlil qilinib, «Davr xarajatlari» tushunchasini quyidagicha ta'riflash tavsiya qilindi: «Davr xarajatlari-maxsulot tannarxini tashkil qilmasdan, balki takror ishlab chiqarish jarayoi faoliyatini tashkiliy hosil qilish, uzluksizligiii ta'minlash, boshqarish va korxonani umumiy tartibga solib turish bilan bog'liq asosiy funktsiyalarni doimiy bajarish tusidagi hamda hisobot davri yakunida to'g'ridan-to'g'ri moliyaviy natija xisobidai qoplanadigan sarflardir».

5. Korxonalarda ma'muriy xodimlar ish haqi hisobi va uni hisoblash tizimi mavjud maxsus avtomatik programma (1S; Info-Buxgalter, BEM)larda yuritilishi nazarda tutilmagan. SHuning uchun, ko'pgina tashkilotlarda hisob tizimi avtomatlashtirilgan tarzda yuritilsada, ish haqi hisobi, ayniqsa soliqlar va ularga tenglashtirilgan ushlanmalar hisob-kitobi qo'l mehnatiga asoslangan. Ushbu hisob tizimini takomillashtirish maqsadida Windows» opretsion tizimining «Microsoft Yexsel» programmasi bo'yicha elektron hisoblash formasi taklif qilindi. Ushbu

formaga xodimning ishlagan kunlari, bir soatlik ish haqi va ish haqining minimum darajasi to'g'risidagi ma'lumotlar kiritiladi. Qolgan tahliliy hisobkitoblar avtomat bajariladi.

6. Mavjud amaldagi buxgalteriya hisobi tizimi, jahon amaliyotida keng qo'llanilayotgan «Qisqartirilgan tannarx» («Direct-costing») qoidalariga asoslangan «Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida»gi Nizom asosida yuritilib, bunda ishlab chiqarish xarajatlarining mahsulot tannarxiga kiritilishi va davr xarajatalrining (hisobot davri oxirida) moliyaviy natijalar hisobidan qoplanishi nazarda tutilgan. Mazkur qoidalar asosida tuziluvchi hisobot shakllari tashqi foydalnuvchilar uchun maqbuldir. Lekin, ushbu hisob tizimi boshqaruv uchun: baho siyosatini yuritishi; mahsulot rentabelligini aniqlash kabi masalalarda zarur bo'lgan ma'lumotlarni yetkazib berishga asoslanmagan. Buning uchun buxgalteriya hisobi tizimida «To'liq tanarx» haqida ma'lumotlar beruvchi jarayonni shakllantirish lozim.

7. Korxonalarda MXXSlari qoidalariga asoslanib, mol-mulk solig'ini to'laligicha 9430-«Boshqa operatsion xarajatlar» schyoti tarkibida emas, balki mazkur mol-mulkning ishlab chiqarishga aloqador qismiga mos ulushini 2010-«Asosiy ishlab chiqarish» schyotiga olib borish taklif qilindi. SHunday qilib, ushbu referatimizda ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar korxonalarda davr xarajatlari hisobini tashkil qilish hamda kelgusida ularni yanada takomillashtirishga zamin yaratadi deb hisoblaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Sh.M.Mirziyoyev. “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo’lishi kerak” // ”Xalq so’zi” –21-yanvar 2017-yil
2. “Ma’suliyati cheklangan hamda hamda qo’shimcha mas’uliyatli jamiyatlar to’grisida”gi O’zbekiston Respublikasining Qonuni T.. 2001 - yil 6 – dekabr 310-II-son.
- 3.“O’zbekiston Respublikasi Korxonalar to’g’risida”gi qonun 1992 - yil 9 - dekabr
- 4.“O’zbekiston Respublikasi Aksiyadorlik jamiyati to’g’risada”gi qonun 1996 - yil 26 - aprel
- 5.O’zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va qonunlari hukumat qarorlari.
- 6.O’zbekiston Respublikasi Brinchi Prezidenti Karimov I.A. “Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va islohatlashtirishdir”.
- 7.O’zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyevning 2017-yil 22-dekabrdagi Oliy Majlisga murojatnomasi. O’zbekiston milliy axborot agentligi T. 22.12.2017y
- 8.O’zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyayevning O’zbekiston Respublikasini 2017-2012 illarda rivojlantirish bo’yicha harakatlar strategiyasi. Lex.uz PF-4947-son 07.02.2017
- 9.«O’z ERAE Climate Control» mas’uliyaticheklangan jamiyatining yillik hisobot ma’lumotlari.
10. www.president.uz
11. www.lex.uz

12. www.finansy.ru

13. Kaspina R.G, Plotnikova L.A Buxgalteriskiy uchyot: uchebniy posob, Rossiya-M: eksmo 2010

14. Yusupova Nilufar «davr xarajatlari hisobini tashkil etish» Toshkent 2012.